

IBADULLAYEV Q. M.

PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

IBADULLAYEV Q. M.

PEDAGOGIKA
barcha mutaxassisliklar uchun
DARSLIK

Chirchiq-2023

UO'K 37.013

KBK 74

I-12

Ibadullayev Q.M. / **Pedagogika** / Darslik. – Chirchiq: "Nazokathon ziyo print", 2023. – 136 b.

ANNOTATSIYA

Mazkur darslik oliy ta'lim muassasalari barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda, uzluksiz ta'lim tizimida davlat siyosatining mohiyati, mazmuni, tamoyillari va xususiyatlarini o'rganish; uzluksiz ta'lim tizimining mohiyati, turlari ijtimoiy va kasbiy asosda o'rganish; shaxs rivojlanishi va shakllanishining mohiyatini va qonuniyatlarini o'rganish va ularning tarbiya jarayoniga ta'sirini tahlil qilish; innovatsion metod, vositalar, shakllar va ta'lim maqsadlarini ishlab chiqish va tahlil qilish; pedagogika va o'qitish jarayonlari, ta'lim mazmuni va tarbiya nazariyasi hamda ta'lim va tarbiyaning metodlarini o'rganish; bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiga bo'lgan qiziqishlarini yanada chuqurlashtirish, barkamol shaxs qilib tarbiyalash kabi bilimlar fanning o'quv dasturi asosida ma'ruza mashg'ulotlari hamda amaliy mashg'ulotlar mavzular ketma-ketlikda bayon etilgan.

Muallif:

Ibadullayev Q. M. CHDPU "Maktabgacha ta'lim" fakuteti dekani pedagogika fanlari doktori, (DSc)

Taqrizchilar:

Mardonov SH.Q. O'zPFITI pedagogika fanlari doktori, professor

Artikova M.B. ADPI "Magistratura bo'limi boshligi, pedagogika fanlari doktori, professor

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-785-46-7

© Ibadullayev Q.M., 2023
© "Nazokathon ziyo print", 2023

KIRISH

Bugungi yangi O'zbekistonni qurishda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish dolzarb masala qatorida o'z aksini topmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimida davlat siyosatining mohiyati, mazmuni, tamoyillari va xususiyatlarini o'rganish; uzluksiz ta'lim tizimining mohiyati, turlari ijtimoiy va kasbiy asosda o'rganish; shaxs rivojlanishi va shakllanishining mohiyatini va qonuniyatlarini o'rganish va ularning tarbiya jarayoniga ta'sirini tahlil qilish; innovatsion metod, vositalar, shakllar va ta'lim maqsadlarini ishlab chiqish va tahlil qilish; pedagogika va o'qitish jarayonlari, ta'lim mazmuni va tarbiya nazariyasi hamda ta'lim va tarbiyaning metodlarini o'rganish; bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, taraqqiylarning kasbiga bo'lgan qiziqishlarini yanada chuqurlashtirish, barkamol shaxs qilib tarbiyalash kabi bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, ta'lim va pedagogikaning ijtimoiy taraqqiyot talabiga javob berganligi, ilmiy taraqqiyot bir butun tarbiya amaliyoti, shuningdek, ta'limdagi yutuqlarning muhimligi ham nazarda tutiladi. U yoki bu pedagogik konsepsiyalar, ta'limotlarni tavsiflaganda shu ta'limotlar ijodkorining hayoti va faoliyatidagi eng muhim voqealarni asos qilib olish nazarda tutiladi.

Shu bois, mazkur darslik barcha ta'lim yo'nalishlari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish borasida bilimlar majmuini kompleks tarzda qamrab olingan. Shuningdek, xorijiy tajribalar tahlil etilib uning zamonaviy yondashuvlari bayon etilgan.

1. MAVZU. PEDAGOGIKA FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

- 1.1. Pedagogika bu nima? Pedagogika fanining predmeti.
- 1.2. Ilmiy pedagogik tushunchalar. Ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.
- 1.3. Pedagogik modellar. Produktiv pedagogika. Pedagogik modellarning ta'limga qo'yadigan talablari. Multisavodxonlik modeli.
- 1.4. Pedagogik fanlar tizimi. Pedagogikaning tarmoqlari.

1.1. Pedagogika bu nima? Pedagogika fanining predmeti

Kelajagi buyuk davlatni qurayotgan kishilarning tafakkuri, yangi iqtisodiy munosabatlarni tiklashga, moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga astoydil kirishib doimo yonib yashash hissi bilan sug'orilgan bo'lishi lozim. Mana shunday ijobiy xislatlarga boy insonni tarbiyalash pedagogika o'quv yurtlarining, ukuv muassasasi, lisey, gimnaziya, kollej, institut va universitetlarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

«Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot,
yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir».

A. Avloniy

Haqiqatan ham inson hayotini saodatga, sof insoniy faoliyatga erishishda tarbiyaning roli nihoyatda muhim. Yoshlarni tarbiyalashda biz uchun qadrli bo'lgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, o'chmas merosimizga mehr-muhabbat ularga sodiqlik ruhini shakllantira olsak har birimiz uchun ijobiy natija bajarayotgan ishlarimizning mahsuli ekanligi bilinadi. Buning uchun avvalo milliy g'urur, milliy ong, milliy g'oya, ma'naviyat, yuksak madaniyat egasi kabi tushunchalarni yoshlarning ongiga singdirishimiz lozim. Chunki tarixni bilmasdan, o'rganmasdan

undan ruhiy, ma'naviy ozuqa olmasdan turib, kelajakni, kelajakdagi orzu umidlarga erishib bo'lmaydi. Demak, Pedagogika fanining predmeti, o'qitishning, ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni, mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo'lganligi uchun ham uning metodologik asoslari maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi.

"Pedagogika
nima?"



bu *Ba'zida pedagogika noaniq tushuncha siftda bildirilsada, bu - samarali o'qitish uchun bilimlar va malakalarni talab qilinadigan kombinatsiya tushunchasidir. Bundan ortiqroq an'anaviy ta'riflar pedagogikani "fan", "nazariya" yoki "san'at o'qitish" amaliyoti sifatida aniqlaydilar, bu esa, talabalarni intellektual va ijtimoiy rivojlanishida ahamiyat kasb etadi*¹

Ortiqroq muayyan yangi tadqiqot pedagogikani "juda ham murakkab nazariy tushuncha va amaliy ko'nikmalar aralashmasi" deb aniqlaydi (Lovat, ACDE, p.11 2003)².

Bu tadqiqot birinchi o'rinda o'qituvchilarning keng va murakkab ishlarini oldinga olib chiqadi va bu ishning tabiatini haqiqatda aniqlaydi. Lovat keyingi jihatlarni bunday keltiradi: "o'qituvchi - bu baland turib rivojlangan avtonom professional, kerakli ixtisoslik bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy malakalar, qaysiki tibbiyot, qonunda va loyihalashtirishda ekvivalent bo'lib bir qatorda turishi mumkin" (ACDE, p.11)³.

Pedagogikaning har xil modellarini turli tadqiqotlar va nazariyalar mustahkamlashi mumkin. Freebody and Lukening tasdiqlashicha, ma'lum chegarasi bor hududlarda o'qituvchilarning ish tartibi va ta'lim oluvchilarga yaqinlashishlari, ya'ni ta'lim

¹ Jan Chapuis, Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-4 p.

² Jan Chapuis, Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-4 p.

³ Jan Chapuis, Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-5 p.

berishlari farqlanadi. Turli toifadagi talabalar qobiliyatlariga qarab samarali o'qituvchilarni bilishadi. (A Map of Possible Practices, Luke & Freebody, June, 1999)⁴.

Samimiyat bilan bizning kollektiv donishmand madaniyatni tasavvur etib va intizomiy bilimlar bilan qo'llab, ular hamda talabalarning tahliliy va tanqidiy quvvatlarini rivojlantirishadi (NBPTS 1999, 3-4 in Lovat, ACDE p12). Boshqacha so'zlar bilan aytganda, yaxshi pedagogika keng strategiyalar repertuarini va o'shanga mos diqqatni talab qiladi, talabani, o'quvchini shakllantirish uchun nimalar amalga oshirish kerakligini aniqlaydi. Samarali o'qituvchilarning "ular dars beradigan to'g'risida narsalarning boy tushunchalari mavjud, buning qadriga ular Yetadilar, qaysi narsaga qanday bilim berish, tashkil etish, boshqa fanlar bilan bog'liq mansub ko'rsatkichlarni yaratish bu real dunyo deb biladilar"¹¹

O'qituvchilar har xil pedagogik modellar va strategiyalar uchun sifatli tadqiqotlarga ishonch xosil qilish kerak va o'sha vaqtda ular ta'lim berish uchun san'at va fan bilan shug'ullanish kerak. O'zining xususiy ehtiyojlarga va man'balarga ko'ra talabalarga tayyorlashi lozim.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi buyuk chex pedagogi Yan-Amos Komenskiy (1592-1670) nomi bilan bog'liqdir.



Komenskiy tomonidan taklif etilgan tamoyillar, ta'lim jarayonining shakl va uslublari «Pedagogika»ning oltin fondiga kirgan. Uning mashhur «Buyuk didaktika» asari pedagogika nazariyasi va amaliyoti sohasida birinchi muhim ilmiy asar hisoblanadi⁵.

⁴ Lea Chapuis. Pedagogy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-5 p. ¹¹ Lea Chapuis. Pedagogy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-5 p.

«Pedagogika» atamasi qadimiy Yunonistondan kelib chiqqan. Bu Yerda quldorlar farzandlarini ukuv muassasasiga kuzatib qo'yadigan, olib boradigan odamlarni «pedagog» deb atashgan. Keyinchalik bu atamaning ma'nosi birmuncha o'zgardi. Maxsus tayyorgarlik ko'rgan va tarbiya bilan shug'ullangan shaxslar «pedagog» deb atala boshlagan. Ko'p vaqtlar pedagogika ilmiy fan sifatida faqat o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasini o'rganadi, deb qaralgan. Ammo hayot amaliyoti tarbiyasiga emas, balki kattalar tarbiyasiga ham taalluqli ekanligini ko'rsatdi. Shuning uchun ham keyingi paytlarda pedagogikani yosh avlodni va katta yoshdagi odamlarni tarbiyalash va o'qitish, ularga ma'lumot berish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan, deb belgilash odatga aylandi.



Pedagogik antropologiya inson tabiati va kishilar hamjamiyati hamda inson va kishilar guruhini tarbiyalash va o'qitish haqidagi savollarga javob beradi. Shuning

uchun u imorat poydevoriga qiyoslanadi.⁶

Har bir mustaqil fan o'zining predmeti va metodik asosiga ega bo'lgani kabi «Pedagogika» fani ham fan sifatida shakllanib, o'z predmetiga ega bo'ldi. Barcha ijtimoiy fanlar kabi jamiyatdagi o'zgarishlar, inqiroz, yuksalishlar Pedagogika fanining metodologiyasi, o'qitish jarayoni, g'oyalar rivojiga ham o'z navbatida ta'sirini ko'rsatadi. Lekin insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hamma davrlarda pedagogik faoliyat, tarbiyaviy jarayon mavjud bo'lgan. Tarbiyadagi keng ma'no ta'lim, rivojlanish, ma'lumot bilan bog'langan holda barkamol insonni voyaga Yetkazishdir.

Ilmiy tadqiqotlar davomida o'qitish haqida ikki qarash mavjud: (Shulman in Lovat, p12)¹⁴.

⁵ Westbrook J, Durrani N, Brown R, Orr D, Pryor J, Boddy J, Salvi F (2013) Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries. Final Report. Education Rigorous Literature Review. Department for International Development. P. 27-29

⁶ Germany's Vocational Education at a glance.. E-Mail: books@bmbf.bund.de Internet: <http://www.bmbf.de>.

National Student Fee and Support Systems in European Higher Education.-15

¹¹ Lea Chapuis. Pedagogy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-5 p.

1. Yaxshi ta'lim tabiiy ravishda avtoritar mahoratni keltirib chiqaradi.

2. Yaxshi o'qituvchi biror narsani umumiy o'qitishi mumkin.

Shunday qilib, "tajribali ta'lim - aniq narsalar to'g'risidagi bilimlardan va ta'lim - hunardan ajratilmaydi..."

Oxirgi yillarda bilimlar va malakalarini rivojlantirish ehtiyojidan kelib chiqqan holda talab qilingan samarali o'qitishni tashkil qilish maqsadida "Asl pedagogika" (Newmann, 1996), "sifatli pedagogika" (Hammond, 1997), "ishlab chiqarish pedagogika" (QSRLS 1999) kabi tushunchalar vujudga keldi. Bunday tushunchalar pedagogikada pedagogik tarkiblar va strategiyalarning qisqa sharhini ta'minlab beradi¹⁵, **tarbiya**,

Bizga yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ldiki, pedagogika fani ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'zgarishini o'rgatadi, tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beradi. Shu asnda ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, yo'llarini ko'rsatib beradi. Pedagogikaning asosiy ilmiy pedagogik tushinchalari tarbiya, ta'lim, ma'lumot kiradi. Lekin, hozirgi pedagogikani taraqqiy etib borishida, asosiy pedagogik kategoriyalar qatoriga rivojlanish va shakllanishni xam kiritsa bo'ladi.

Tarbiya - o'sib kelayotgan Ta'lim - maxsus tayyorlangan avlodda hosil qilingan bilimlar kishilar raxbarligida asosida aqliy kamolot - o'tkaziladigan, o'quvchilarni dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, bilim, kunikma va malakalar burch va ma'suliyatni, bilan qurollantiradigan, bilim, jamiyatimiz kishilariga xos qobiliyatlarini o'stiradigan, bo'lgan axloqiy fazilatlarini ularning dunyoqarashini tarkib yaratishdagi maqsadni toptiradigan jarayondir. ifodalaydi.

Bilim - bu o'quvchilar o'qish Ko'nikma - mashq qilish orqali bilim bilan natijasida beriladigan xarakterlar qurollanadilar. Bilimni xayotda yiqindisidir. ko'p unum beradigan qilib qo'llay Ma'lumot - ta'lim - tarbiya olish uchun bilim bilan birga natijasida olingan va ko'nikma va malaka hosil qilish tizimlashtirilgan bilim, hosil lozim.¹⁶ qilingan ko'nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir.

Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-5 p.

Westbrook J, Durrani N, Brown R, Orr D, Pryor J, Boddy J, Salvi F (2013) Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries. Final Report. Education Rigorous Literature Review. Department for International Development.R.35-39.

1.2. Pedagogik modellar: produktiv pedagogika. Pedagogik modellarning ta'limga qo'yadigan talablari. Multisavodxonlik modeli.

Pedagogika fani ijtimoiy fanlar qatoriga kiritilgan fanlardan biri bo'lib, quyidagi pedagogik modellarni o'z ichiga oladi:

1. Produktiv pedagogika.
2. Multisavodxonlik modeli.

Produktiv pedagogika - auditoriyalarda tadqiqot asbobi sifatida rivojlangan Kvinslend maktab islohotlarini ifodalaydi. (QSRLS) 2001. Produktiv pedagogikadan o'quvchilar amaliyot xususida foydalanishlari mumkin. Ya'ni, mazkur pedagogika hamkasblar bilan suhbatlar olib borish uchun va talabalar xususiy ehtiyojlarini aniqlash uchun kasbiy lug'at sifatida foydalanishlari nazarda tutilgan.



Produktiv pedagogikaning yigirma qismdan ortiq elementlari mavjud, amaliyotchilar ularni to'rtta o'lchamga birlashtirishadi va zarur bo'lgan shart-sharoitlarda ulardan foydalanishga harakat qiladilar.⁷ 8 Aqliy sifatning yuqori darajasi.

- Aniqlangan o'zaro bog'liqligining va keraklik yuqori sathlari va auditoriyaning atrof-muhit juda mosligi.
- Kuchli farqlarni tan olish.

*Produktiv Pedagogikaning to'rtta o'lchamlari*¹⁸

Aqliy sifat	O'rinli ekanligi/bog'langanlik	Ijobiy atrof-muhit	Farqlarni tan olish
Yuqori buyurtmani uylash	Bilimlar integratsiyasi	Talabalarni boshqarish	Madaniy bilimlar
	Fon bilimlari	Ijtimoiy yordam	Inklyuziv
Chuqur bilimlar			
Chuqur tushunish	Asosiy muammo O'quv reja	Akademik majburiyat	Guruhning o'xshashligi
Mustaqil suhbat	Auditoriyadan tashqari bog'langanlik	Yaqqol mezonlar	Aktiv fuqarolik
Muammoli bilimlar		Talaba o'ziga baho quyishi	Hikoya

Bu to'rtta o'lchamlarni yaxshi tushunish uchun quyidagi pedagogik tuzilmalar va strategiyalar olingan. Aqliy sifat, o'rinli ekanligi yoki bog'liqlik, ijobiy atrof-muhit hamda farqlarni tan olish.

O'quv rejani barcha o'rganilayotgan

⁷ Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-5 p., 1-6 p.

¹⁸ Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-5 p., 1-6 p.

sohalarda yangitdan puxta o'rganish uchun **MULTISAVODXONLIK** asos bo'lib xizmat qiladi.

Multisavodxonlik ijtimoiy, texnologik va iqtisodiy o'zgarishlar asosida qayta kurib chiqilgan. (Anstey, 2002). Multisavodxonlik turli usullar orqali ayrim jihatlarni o'zgarishini zamonaviy atrof muhitga aloqa yo'llarini topish uchun murojaat



qiladi. Ayni bu kunlarda mazmuni bilan almashish faqat lingvistik bo'lib kamdan kam hisoblanadi.

Ular deyarli o'zgarishsiz ko'p modallik hisoblanadi. Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Lingvistik, vizual, audio, imo-ishorali, fazoli.

NIMAGA Multisavodxonlikdan:

Hisim uchun ko'p punktlar mavjud: savodxonlik to'g'risida yangi usullar orqali o'ylash:

- **Tehnologiya:** ahamiyat berilgan va xabar berilgan multimedia va axborotga oid texnologiyalarning serobgarchiligi shunday yo'lni shakllantiradi. Bizga tanish bo'lgan hamda ommaviy axborot vositalari nashrlariga asoslangan yangi raqamli resurslar dinamik yangi miqdorli matnlarni ishlab chiqaradilar.

- **Ish:** katta miqdordagi an'anaviy mashg'ulotlardan bilimlarni boshqarish mashg'ulotlargacha qadar xizmat doirasida ko'p marotabali mashg'ulotlarni oldida turib, bundan ortiqroq yuqori savodxonlik darajalari talab qilidi.

- **Vizual aloqa:** ko'z bilan qarab harakatlanayotgan tasvirlarni sharhlamoq uchun qilingan savodxonlik. Bunda, ma'lumotlar ekranga chiqariladi, lekin nashr qilinmaydi.

¹ Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-5 p., 1-6 p.

• **Turli-tumanlik:** iqtisodiy tuzilmalar, ish joylari ortiqroq birlashishgan va turli-tuman madaniyatning hamda tilning oshishi bilan tasvirlanadi.

• **Dunyo miqyosidagi ingliz tili va multi Englishes:** ingliz tilining juda ham ko'p ichki o'zgarishlar borki, u standart va "to'g'ri foydalanish" dunyoda ortiqchilikni shakllantiradi.

• **QANDAY** Multisavodxonlikdan:

Multisavodxonlik tuzilishi o'qituvchilarni barcha o'rganish



sohalar orqali qo'llab quvvatlaydi, o'quv rejani shakllantirish uchun, ovozli pedagogikani kafilligini sifat tekshiruvchi orqali rivojlantiradi va auditoriyada talabalar turi-tumanligiga javob beradi. Tuzilish hamda onlayn o'quv rejalarini shakllantirish uchun foydalaniladi, chunki ular mezonlarga javob beradi va ularga erishsa bo'ladi.

Multisavodxonlik va bilimlar jarayoni⁹

Multisavodxonlik O'quv reja yo'nalishini aniqlash		Bilimlar jarayoni
Joylashgan amaliyot	•	- bardosh bilan Yengish - Bilimga erishish
ochiqdan-ochiq qo'llanma		- yangilikka erishish
	•	Anglash
Tanqidiy yaratish		- Tushunchalarni belgilash - nazariyalashtirish

⁹ Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-9 p., 1-10p.

O'zgartirilgan amaliyot	•	Tahlil qilish
		- funktsiyalarni identifikatsiyasi
		- qiziqishlarni identifikatsiyasi
	•	- Qo'llash
		- muvofiq qo'llash
		- ijodiy topshirish

Multisavodxonlik tuzilishi¹⁰

Joylashgan amaliyot	Har qanday turli tuman bilim	Real dunyo matnlari
tajribaga	talabalar qiziqishi maktabga olib	bilan solishtirish
kirish	kelinadi (egways, xabarlar) yoki aniq	masalan, video,
	faol o'rganishga kirib ketish,	kliplar, vebsaytlar,
	talabalar hayoti bilan ulash	yo'riknomalar
Ochiq yo'riqnoma	Aniq ta'lim olish, bu Yetarli yoki	Eg muhokamasi
Namunalar ma'nosining tavsifi	malakalarni asosiy namunalarda	qanday matnlar
	ma'nosini fosh etish	bilan ishlash
Tanqidiy yaratish	Maqsadli o'rganish, maqsadlarni	Eg muhokamasi,
Maqsadning	aniqlashtirish va tushuntirish, aloqa	nima uchun matnlar
Joylashishi	sifatida. Nimalar qilingan?	kimning ovozlari

¹⁰ Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-11 p.

	Kim uchun? Nimaga?	eshitiladi va
		kimlarniki yo'q
O'zgartirilgan Amaliyot	Amaliy o'rganish. Real dunyoning ahamiyati, aloqa yo'li amalda, yangi	Eg ishlash va foydalanish
Ahamiyatni qushish	Kontekstga kelishuvni keltirish	matnlari (ular
	Talabalarni yangi joyda, yangi	bilan
	Ta'lim olishga o'rgatish)	nimalarni
		bajarish), yangi
		bilimlarni
		qo'llash

Bundan bittasi ham mo'ljallanmagan, o'qituvchilar ularning mavjud o'quv rejasiga ko'p yangi mazmunni qo'shish sharti ko'zda tutilmagan. Bunga qarshi Multisavodxonlik g'oyasi yangi savodxonlik o'quv rejasini puxta o'ylab ko'rish uchun asos bo'lib xizmat qiladi (PETA March 2002).

Pedagogika o'rganish amaliyotida to'rtta element mavjud. Ularning umumiy mezonlari yuqoridagi jadvalda keltirilgan. Ular bilimlar jarayoniga to'g'ri keladi, talabalarni o'rganish transformatsiyasiga olib keladi. Jadvalda keltirilgandek, bu tuzilish to'rtta o'lchamni qo'llab quvvatlab, produktiv pedagogikaning modelini asoslab beradi.

Pedagogik modellarning ta'limga qo'yadigan talablari "talabalar tomonidan faol daxldorlik ularning bilimlar o'zlashtirishi va qurilishida jiddiy samarali omil hisoblanadi"¹¹ (Murdoch, p.5).

Rasmiy talab – zamonaviy auditoriyada turli didaktik metod va vosita sifatida rivojlanish g'oyalarini tuzilishi hisoblanadi. (See Murdoch:

¹¹ Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-9 p., 1-10p.

p.4). Natijalar o'quv rejası hujjatlariga asoslanadi, o'rganilayotgan sohalarida salomatlik, ijtimoiy va ekologik ta'lim kabi rasmiy talabni himoya qiladilar. Bu jarayonlar to'rtta ishlab chiqarish pedagogik o'lcham sifatida auditoriyada turli xildagi talabalarni o'rganish, ularni tegishli bilish va o'quv rejalar jarayoniga faol qatnashishlari uchun samarali xizmat ko'rsatadi.

Ushbu tuzilma talabalar manfaatlari va quylayliklari uchun ish birliklari o'quv rejalar orqali birlashishgan. Malakalar, qadriyatlar va ularni tushunish mezonlari ma'noli, o'zaro bog'langan kontekst atrofida tushuntiriladi va baholanadi (Beane, 1991, Harste, 1992, Hamston and Murdoch 1996, Wilson 1991, Murdoch & Hornsby, 1997)¹².

Ushbu yondashuv tub ma'nodagi munosabatlar orasidagi farqini aniqlashda atrofıdagi qiziqtirgan sohalarini o'rganishda (fan, texnologiya, salomatlik, ekologik va ijtimoiy ta'lim) va dunyoni tushunish uchun tadqiqot sohaları (til, matematika, san'at, drama, raqs, musiqa va texnologiyalar jihatları) foydalaniladi.

Ishning birliklari asoslangan rasmiy talab ta'lim oluvchilarning faoliyatini emas balki, ketma-ketlikni o'rganish va tadqiq qilish tayanch kelishuvlar atrofida ishlab chiqilgan yoki keng tushunchalar atrofida, o'rganishni samarali qiladi. (See Kath Murdoch model in Appendix A).

Masalaga yaqinlashish rasmiy talabga ishonchni qaytaradi, nima uchun talabalarining faol daxldorligi samarali o'qitishni va o'rganishni jiddiy hisoblanadi. Rasmiy talab metodologiyasi va integrallashgan o'quv reja hamda yaqindagi "miyani o'rganish" bo'yicha tadqiqot natijalari bilan tasdiqlanadi. Caine and Caine (1990) tasdiqlaydilar, "miyaning integratsiyaga tabiiy kobiliyati mavjud borligini" va bu auditoriyada foydalaniladigan ta'lim usullari bilan mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Boshqa parallellarni o'rganayotgan rasmiy talab, talaba tomonidan bir joyga to'plangan va o'quv rejaning voqealariga mo'ljallangan, shu kabi til o'rganish (Goodman 1996, Harste, Woodward & Burke 1984, Cambourne 1988), kelishilgan o'quv

¹² Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-9 p., 1-10p.

rejasi (Boomer 1992) va bolalar uchun falsafa (Lipman 1988, Splitter 1995).

• Rasmiy talabda markaz mazmunda va jarayonda bir xil yo'naltirilgan.

Rostlash – O'rganish – yangi Saralash – talabalar talabalarni o'rganish mazmun, g'oyalarni tashkil uchun vaqti, ularni tushunchalarni, yangi qiladilar va turli oldingi bilimlarni voqealarni bilish usullar yordamida aniqlaysiz va ularni vaqti, yangi ishlov beradilar; keyingi bosqichga ma'lumotlarni tayyorlaysiz; yig'ish;

Talabalar idrokiga

Aloqalarni yaratish – asoslanish va qarshi Keyingi harakat - talabalar xulosalar chiqish harakat va alternativ voqealar qiladilar, yangi voqealarning ketma- yoki rasmiy talabning kelishuvlarni aniq ketligi asosida avenyusini taqdim shakllantiradilar va rivojlangan. etish, mohiyatga kirib solishtirib ko'rish **Uning bosqichlari** ketishni yangi **bosqichini quyidagicha:** qobiliyatini topib ta'minlayaptilar; olish uchun yoki mustaqil tadqiqot

uchun;

Choralar ko'rish – talabalar nazariya bilan amaliyotni bog'lab va umumiy katta rasmni ko'rish uchun harakat qilishga urinishadi.

Har bir bu bosqich "integral strategiyalar" diapazonini o'z ichiga oladi (Murdoch, p6, Classroom Connections), talabalarga dunyoni tushunish uchun "katta rasm"ni rivojlantirishga yordam beradi. Tasdiqlangan, samarali o'rganish paydo bo'lishi qachon o'qituvchilar

talabalarni strategiyalarga jalb qilishadi, qaysiki turli ishlov berish usullardan foydalanishadi.

Strategiyalardan maqsadli foydalanish, qaysiki "bilish usullar" diapazonini rag'batlantiradilar, talabalarga ahamiyatli tomoniga diqqatni qaratishga yordam beradi (Atkin 1993; 1997). Bu strategiyalar ko'pchiligi shu modulning ikkinchi qismida muhokama qilingan¹³.

1.3. Pedagogik fanlar tizimi. Pedagogikaning tarmoqlari.

Tarixiylik tamoyili har qanday fan rivojlanishining zarur tamoyili hisoblanadi. Zero o'tmishni hozirgi davr bilan qiyoslash faqat hozirgi hodisalarning asosiy rivojlanish bosqichlarini yaxshi kuzatib borishga yoki o'tmishning bebaho tajribasi hamda erishilgan yutuqlardan foydalanishga yordam berib qolmay, shu bilan birga, bu sohada xatolarga yo'l qo'yishdan saqlaydi va kelajakka yo'naltirilgan amaliy takliflar, maqsadli izlanishlarni amalga oshirishga ko'p darajada asos bo'ladi. Jamiyat hayotini qayta qurish, o'sib kelayotgan yosh avlodni shuningdek, hamma mehnatkashlar tabaqalarini tarbiyalashni kuchaytirishni talab etadi. Bunday sharoitda pedagogikaning tadqiqot sohalari doirasi kengayadi. Hozirgi kunda pedagogikani asosiy tarmoklari sifatida kuyidagilarni keltirib o'tamiz.

Umumiy pedagogikada tarbiyalanuvchilar orasida mafkuraviy targ'ibot va madaniy ma'rifiy ishlar ham o'ziga xos tarmoqlariga egadir. Bu mehnatkashlarni tarbiyalash ishlariga munosib hissa qo'shadi va belgilangan pedagogik g'oyalarga suyanadi.

Defektologiya fanlari o'z navbatida alohida mustaqil bo'lgan tarmoqlarga bo'linadi:

Oligofrenopedagogika - aqli ojizlar ta'lim - tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Logopediya - tilida nuqsoni bor bolalar bilan shug'ullanadi.

Bunday ilmiy ishlar bilan shug'ullanadigan institutlar Respublikamizda turli tavsiyalar berish, metodikani ishlab chiqish


¹³ Lea Chapuis, Pedagogy, Embedding Learning Technologies, Modul 1. 1-9 p., 1-10p.

bilan bir qatorda ilmiy izlanishlar, tajriba almashinish bilan ham samarali tadbirlarni olib borishadi. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida maxsus tashkil etilgan Defektologiya fakultetida munosib mutaxassislar tayyorlanayotganligi fikrimizning dalilidir.



**SURDOPEDAGOGIKA - KAR VA GUNG
TARBIYALANUVCHILAR TA'LIM
TARBIYASI MASALALARI BILAN
SHUG'ULLANADI.**

**Tiflopedagogika - ko'zi ojiz
tarbiyalanuvchilar
ta'limtarbiyasi bilan
shug'ullanadi.**



O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

Pedagogika fan sifatida.

1. Ilmiy pedagogik tushunchalar: ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bir-biridan farqi.
2. Produktiv pedagogika. Pedagogik modellarning ta'limga qo'yadigan talablari. Multisavodxonlik modeli.
3. Pedagogikaning tarmoqlari va ularning o'ziga xos jihatlari.
4. Iqtisodiy pedagogika fan sifatida shakllanishi.

2. MAVZU. TARBIYA NAZARIYASI

1. Tarbiya tushunchasi. Tarbiya jarayoni.
2. Tarbiya metodlari. Tarbiya konuniyatlari va tamoyillari.
3. Tarbiya turlari. Aqliy, axlokiy, jismoniy, mehnat, iqtisodiy, ma'naviy tarbiya. Oila tarbiyasi.
4. Sharh muhofazakarlarining tarbiya haqidagi qarashlari.

2.1. Tarbiya tushunchasi. Tarbiya jarayoni


Tarbiya jarayonining mohiyati nimadan iborat? Bu oddiy savol ko'libgina qolmay, pedagogika rivojlanishi shu vaqtga qadar ushbu muammoni Yechish yuzasidan ko'pgina qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Avvalo shu narsani bilib olish lozimki, tarbiya tushunchasi har kil mavzuda qo'llanishi lozim. Masalan, tarbiya deganda, yosh avlodning kelajak hayotga tayyorlash deb tushuniladi. Lekin, bu tayyorlash maxsus tashkil qilingan tarbiya faoliyatlari bilan amalga oshirilishi mumkin. Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq shakllashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki yoqlama faoliyatni pedagog va talaba faoliyatini o'z ichiga oladi.

**Tarbiya jarayonida
tarbiyalanuvchining ongi
shakllanadi, his-tuyg'ulari
rivojlanadi, ijtimoiy hayot
uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy
aloqalarga xizmat qiladigan
xulqiy odatlarni hosil qilinadi.
Tarbiya jarayonida
tarbiyalanuvchilarning hayoti
va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat**



muhimdir. Pedagogikada tarbiyaning maqsadi, mazmuni, shakl va usullari tarbiyalanuvchi shaxsining qaror topishi bilan mustahkam bog'liq holda qarab chiqiladi.

Tarbiya jarayonida shaxsni shakllanish jarayonini quyidagi chizma orqali ko'rsatib o'tish mumkin.



2.2. Tarbiya metodlari. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.

Tarbiya jarayoni uzluksiz davom etadigan jarayon bo'lib, unga pedagog, tarbiyachi rahnomalik qiladi va tarbiyaning ayni vaqt uchun zarur bo'lgan maqsadini, shu maqsadni hal etishga xizmat etadigan faoliyatni belgilaydi. Tarbiyalanuvchilarning ushbu faoliyatga aktiv ishtirok etishini ta'minlab, ular o'rtasida ijtimoiy, jamoa, o'rtoqlik aloqalari va munosabatlari uchun sharoit yaratadi.

Tarbiyani yaxshi yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini, tarbiya jarayoni manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iboratdir. Masalan, tarbiyalanuvchining odobliligi, Yetukligi bilan unga qo'yiladigan talab o'rtasidagi farq tarbiyachi va jamoa ta'siriga shaxsning o'z pozitsiyasi, ya'ni munosabati tarbiya jarayonining ichki qarama-qarshiligi bo'lsa, tarbiyachining talablari

bilan shaxs mikro muhit ta'siri o'rtasidagi uzilish tashqi qarama-qarshilikdir.

TARBIYA USULLARI ham ma'lum bir elementlarga bo'linib tarbiya usullari deb yuritiladi. Masalan, pedagog tarbiyalanuvchiga biror bir vazifani topshirdi. O'z navbatida bu vazifani bajarish uchun ko'rsatmalar beradi. Bu ko'rsatmalar va tushuntirish maxsus holda metodik usul sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiya usullari va vositalari o'zaro mustahkam bog'liqdir. Tarbiya usullari shaxsga ta'sir ko'rsatishdan iborat emas. Tarbiya ikki tomonlama jarayon bo'lib pedagog tarbiyachi faoliyati bilan talaba faoliyatini birlashtiradi.

Tarbiya usulini tadbiq etish muayyan yoshdagi shaxs faoliyatiga mos kelsa muvaffaqiyatli bo'ladi.

Tarbiyaning umumiy usullari asosan 4 guruhga bo'linadi.

1. Ijtimoiy ongni shakllantirish usuli.
2. Ijtimoiy ahloqni shakllantirish usuli.
3. Rag'batlantirish usuli.
4. O'z-o'zini tarbiyalash.

Ijtimoiy ongni shakllantirish usullari - talabalarning ongli, his tuyg'usi va irodasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish usullarini umuman shaxs ongiga ta'sir ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy ongni shakllantirish usullari **tushuntirish, suhbat va o'rnak ko'rsatish** qismlardan iboratdir.



Tushuntirish

- talabalarda e'tiqod hosil qilishning eng keng yoyilgan usulidir.

Tushuntirish usulidan ko'zlangan maqsad shaxsga hatti-harakatlar, voqealar va hodisalarga u yoki bu talablarining ma'naviy, estetik, mazmunini ochib berish, unga hulq atvorga va

insoniy munosabatlarga to'g'ri baho berishni shakllantirishda ko'maklashishdan iboratdir.

Hikoya va suhbat pedagogning jonli so'zi asosida shaxsni g'oyaviy va ma'naviy shakllantirishning ta'sirchan usuli hisoblanadi. Hikoya qilinadigan mavzu talabalar uchun dolzarb, shaxslarni ma'naviy ishonch, ijobiy his tuyg'ular vujudga keltirishga olib kelishi kerak. Masalan, pedagog boshqa gurux jamoasi metallom yig'ishda yordam berganligini maroq bilan gapirib bersa, buning samaradorligi talabalarning qanday quloq solishiga qarab tekshirish mumkin.

Suhbat natijasida qabul qilingan ahloqiy me'yor keyinchalik talabalar hulq atvori va faoliyatida amalga oshirilishi lozim. Va keyingi davrga mo'ljallangan o'z hulq atvorini kuzatishlar bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlar berish imkoniyati tug'iladi.

Rag'batlantirish uslubi biron-bir omilning tarbiyalanuvchiga ta'sirini kuchaytirish hamda tarbiyalanuvchining shaxsini, xatti-harakatlarini aktivlashtirish maqsadida qo'llaniladi.

Rag'batlantirish talabaga shunday ta'sir ko'rsatsinki, bunda tarbiyachi alohida bir talabaning xatti-harakatiga, xulq-atvoriga ijobiy baho bera olsun. Jamoa talablarining bajarilishini rag'batlantirishi uchun asos deb hisoblash kerak. Rag'batlantirish insonga yashayotgan

va ishlayotgan jamoaning undan mamnunligini ko'rsatadi.

Maqtov rag'batlantirish usulidir. Maqto tarbiyachining alohida olingan shaxs xususiyatlariga ijobiy baho berishidir. Talaba tarbiyalanishida maqto'nning o'rni muhimdir. Maqto shaxsni ijobiy xislatlarini tarkib topishga yordam beradi. Lekin maqto ham talaba xissiyotlari rivojlanishi tezlashtirib yuboradi, unda manmanlik, xotirjamlik tuyg'ularini keltirib chiqaradi.



Jazolash usuli. Jamoa talabaning ahloqidan uning ishga munosabatidan, muomalasidan mamnun bo'lmasa, shaxsning o'z hulqini tuzatib olishda yordam ko'rsatish uchun jazo usullaridan foydalanadi. Maqto singari jazo ham talabaning o'zini noqulay sezishga, uyalishga majbur qiladi.

Tarbiyalanuvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda jazolash ham me'yor darajasida bo'lishi shart. Chunki buning natijasida tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning bir qator usullarini ishlab chiqilishi lozim.

O'z o'zini tarbiyalash usullari. Tarbiya jarayonida talaba o'z o'zini tarbiyalashi, ya'ni o'z ustida ishlash, aktiv ish olib borsagina tarbiyani samarali deb aytish mumkin.

Talaba o'z-o'zini tarbiyalash borasida istiqbolini yaratishga intilishi, hayotda ma'lum mustaqillikka intilishda namoyon bo'ladi. O'z-o'zini tarbiyalash oilada va ukuv muassasasidagi tarbiyaviy ishlarning ta'siri ostida ro'y beradi. O'z-o'zini tarbiyalash jamoadagi shaxslarda faolroq amalga oshishi mumkinligi ularda iroda, irtishqoqlik intizomni tarbiyalaydi.

Tarbiya jarayonining tamoyillari quyidagilar:

- 1 tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
- 2 tarbiyaning hayot, mehnat bilan O'zbekistonimizning mustaqilligi, gullab-yashnashi yo'lida qilinayotgan fidoyi ishlar bilan bog'lanishi;
- 3 shaxsni jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;

- **tarbiyada shaxsni hurmat qilish va unga talabchanlik;**
- **tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi hamda birligi;** 2 **tarbiyada shaxsning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kabilardir.**

Yuqoridagi tamoyillar va qonun va qoidalarga amal qilib, yangi ijodiy uslublarni qo'llab, rivojlantirib tarbiyaviy jarayonni tashkil etish maqsadga erishishning eng samarali yo'lidir.

2.3. Tarbiya turlari. Aqliy, ahloqiy, jismoniy, mehnat, iqtisodiy, ekologik tarbiya. Oila tarbiyasi.

Tarbiya jarayoni murakkab va uzluksiz jarayon bo'lganligi, u o'ziga xos xususiyatlarga egaligi asosida bir nechta turga bo'linishini e'tirof etish joiz.

Aqliy tarbiya. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kelib chiqayotgan yangidan-yangi muammolarni ilmiy asosda hal qila oladigan shaxsni tarbiyalash bosh masala hisoblanadi. Buning uchun esa aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish, aqliy mehnat qilish madaniyatiga o'rgatish zarur.



Ekologik tarbiya. Ekologiya so'zi «tom» yoki «uy» degan ma'noni anglatib, nemis olimi Ernest Gekkel tomonidan birinchi bor fanga kiritilgan. Ekologiya fani hozirgi bozor munosabatlari davrida ko'pgina tarmoqlarga ega: o'simliklar ekologiyasi, zooyekologiya, tuproq ekologiyasi, inson ekologiyasi va boshqalar. Ekologiya fani

tanlab olingan bir yoki bir necha obektning yashash sharoitini yoki normalarni o'rganadi va yashashning optimal darajasini aniqlashga yordam beradi.



ERNEST GEKKEL (1834-1919)

Ekologiya tushunchasini amaliyotga tadbiq qilgan nemis biologi.

Ekologik tarbiya jarayonida ekologik bilimlarni shakllantiradi. Ayni paytda ekologik tarbiya masalasiga har kim ham e'tiborli emaslar.




Ahloqiy tarbiya. «Ahloq», «hulq» va «atvor» so'zlari arabcha so'z bo'lib ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida qo'llaniladi. Ayrim odatlarda «ahloq-kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me'yorlari majmua» desa, boshqalar esa «ahloq-ijtimoiy ong shakllaridan biri» bo'lib, hamma

sahalarda kishilarning hatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi» deyishadi.

Ahloq me'yorlari hulq atvorning regulyatori sifatida odat me'yorlariga zid hatti-harakat ahloqsizlik harakati deb qoraladi. Shuni ham borki, huquq majburiy bo'lsa ahloq ixtiyoriydir Ahloqiy tarbiya odamlarni nomusli vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo'lishga o'rgatish bilan profilaktika ishlarini ham olib beradi. Ahloqiy tarbiyada yaxshi hulqni takomillashtirish uchun

kurashiladi. Xalq ta'limi tizimida o'qitish tarbiyalanuvchilarning ahloqiy mukammallashish bilan bog'liq bo'ladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi Ushbu me'yorlarni burch va vijdon mezonini sifatida qabul qiladi.



Axloqiy tarbiya mazmuni.¹⁴

Huquqiy tarbiya - bu shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy munosabatlarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, aniq maqsadni ko'zlagan holda ifodalanishidir. Huquqiy tarbiyani bolaning kichik yoshidan boshlab amalga oshira boshlash, huquqiy axborotlarning birinchi darajali tus olishiga erishish, shaxsning umumiy dunyoqarashi va ijtimoiy yo'naltirilganligining tarkibiy qismi tarzida huquqiy qarashlariga asoslanishi zarurdir.

O'sib kelayotgan yosh avlod huquqiy tarbiyasining xususiyatlari yangi jamiyatning o'z xarakteri, turmush tarziga asoslanadi. Ularning hammasi prinsipial jihatdan yangi, yanada murakkab muammolarni hal etish zarurligini ifoda etadi. Avvalo, huquqiy tarbiya yangi yosh avlodni kamol toptirishning samarali vositasi sanaladi.

Yuqorida qayd qilingan mulohazalar **huquqiy tarbiyaning** yadit tizimi quyidagilardan iboratligini ifodalaydi:

Birinchidan, huquqiy tarbiya subektlariga: davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari, mansabdor shaxslar va boshqalar kiradi.

Ikkinchidan, huquqiy tarbiya obektlariga: mansabdor shaxslar, fuqarolar, ichki ishlar idoralari xodimlari kiradi.

Uchinchidan, huquqiy tarbiya mazmuniga: huquqiy ta'lim, huquqiy targ'ibot va tashviqotlar kiradi.

To'rtinchidan, huquqiy tarbiya shakllariga: ma'ruzalar, seminarlar, suhbatlar, viktorinalar kiradi.

Beshinchidan, huquqiy tarbiya metodlariga: ishontirish, rag'batlantirish, majburlash kiradi.



¹⁴ Ma'lum: qisqa muallimlar tomonidan ishlab chiqilgan.


Oltinchidan, huquqiy tarbiya vositalariga: matbuot, radio, televideniye, adabiyot va san'at asarlari, ko'rgazmali tashviqot hamda targ'ibot vositalari kiradi.

Mustaqillik sharoitida huquqiy madaniyat bilan huquqiy tarbiyaning bog'liqligi yanada ortadi.

Estetik tarbiya. Hayotda tabiat - go'zallikning manbasidir. U estetik tuyg'ularni, bolalarning kuzatuvchanligini va tasavvurini rivojlantirish uchun juda boy material beradi. Bundan tashqari, san'at ham estetik tarbiya vositasi hisoblanadi. San'at orqali estetik tarbiyalash pedagogikada badiiy tarbiya deb ataladi.

Estetik tarbiya quyidagi metodlardan foydalangan holda olib boriladi:

1. Badiiy asarlarni namoyish qilish va ijro etish.
2. Badiiy asarlarni tahlil qilish va baholash.
3. San'atshunoslik bilimlaridan xabardor qilish, talabalar san'atning har xil turlarini ifoda vositalari, tarixi va nazariyasini xarakterlovchi muayyan ma'lumotlar jamg'armasiga ega bo'lishi zarur.



Jismoniy tarbiya. Jismoniy tarbiya shaxsni har tomonlamma rivojlantirish tizimidagi o'z vazifasini bajarish bilan birga, u quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan: salomatlikni mustahkamlash, inson oranizmini chiniqtirish va talabalarning jismoniy rivojlanishiga yordam berish; harakat ko'nikmalarini va malakalarini shakllantirish hamda takomillashtirish; o'g'il bolalarni armiya safariga tayyorlash; fizikultura va sportning mohiyati hamda ijtimoiy roli haqidagi ma'lumotlardan xabardor qilish.

Mehnat tarbiyasi. Mehnat tarbiyasi yosh avlodni tarbiyalashda markaziy o'rinlardan birini egallaydi.



Rivojlanishning asosiy vazifalaridan biri mehnat tarbiyasi va ta'lim samaradorligini umumiy ta'lim ukuv muassasasi talabalarini kasb tanlash, mustaqil hayotga amaliy va texnika inqilobi va hozirgi zamon ishlab chiqarish sharoiti talabalarining mehnat tarbiyasi va ta'limi ana shu talablar darajasiga ko'proq muvofiq bo'lishini talab qilayotir.

Mehnat tarbiyasini bir qator Yetakchi vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- umumfoydasi uchun mehnat qilish zarurligi;
- talabalarda jamoa mehnat faoliyatida ishtirok etish uchun zarur bo'lgan barqaror ma'naviy va irodaviy xislatlarni tarbiyalash;
- talabalarni umumiy bilim va politexnik bilimlar tizimi bilan hozirgi zamon ishlab chiqarishda qatnashish uchun zarur bo'lgan maxsus mehnat ko'nikmalari va malakalari bilan qurollantirish;
- talabalarga bo'lajak kasbni ongli tanlashda yordam berish;
- mehnat madaniyati asoslarini tarbiyalash, tarbiyalanuvchilarning iqtisodiy tarbiyasi.

Iqtisodiy tarbiya. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti uzoq muddatli hamda erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotdir. Bu iqtisodiyotda ijtimoiy iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etish, albatta iqtisodiy tarbiyani talab etadi. Iqtisodiy tarbiya - tarbiyalanuvchilarda iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan birga, tejamkorlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik hamda tadbirkorlikni shakllantiradi.

Tarbiyalanuvchilarda iqtisodiy tarbiya mehnat tarbiyasi orqali shakllanadi.

2.4. SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TARBIYA

HAQIDAGI QARASHLARI

O'zbekiston Respublikasi ravnaqi avvalo uning mutaxassislariga, ularning ma'naviy va jismoniy kamolatiga bog'liq. Har qanday mutaxassis uchun O'zbekistonda barcha sharoit va asoslar jumladan tabiiy boyliklar, unumdor Yer, katta iqtisodiy va ilmiy texnikaviy, insoniy va ma'naviy salohiyat mavjud. O'tmishda yashab, ijod etgan xalqparvar tarbiyachi olimlar va atoqli mutafakkirlar aqliy ta'limga doir bir talay foydali fikrlarni yozib qoldirganlar. Jumladan, qadimgi Gretsiya olimlari, Sokrat, Platon, Aristotel jamoat joylarida so'zlagan nutqlarida va ilmiy asarlarida o'zlarining ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarini ochiq bayon etganlar.

Birinchi Prezident Islom Karimovning "O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy tsivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferentsiyada quyidagilarni ta'kidlagan edi.



"O'rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta'lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san'at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste'dodli avlodlar to'lqinining paydo bo'lishi va voyaga Yetishi - bularning barchasi birinchi

navbatda iqtisodiyot, qishloq va shahar xo'jaligining ancha jadal o'sishi, hunarmandlik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo'llar qurilishi, yangi karvon yo'llarining

ochildishi va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan"¹⁵.

Sokratning fikricha, tarbiyadan kutilgan maqsad buyumlar tabiatini o'rganish bo'lmay, balki kishining o'z-o'zini bilib olishi, ahloqni kamol toptirish kerak.

Aristotel bolalarga ta'lim-tarbiya berishni jismoniy, ahloqiy va aqliy jihatlarini bir-biri bilan chambarchas bog'lagan xolda o'rganishni talab qiladi. U boshlang'ich t'limga gimnastikadan tashqari o'qish, yozish va grammatika, rasm va musiqa ilmlari o'rganilishi lozimligini alohida uqtirgan edi.

IX asrda yashagan o'rta osiyolik faylasuf tarbiyachi Farobiyning yozishiga qaraganda, mohir mirzo arab tilining lug'at va grammatikasini, mantiqni, xusnixatni va arifmetikani yaxshi bilish kerak. O'rta Osiy pedagogika fani tarixida birinchi bo'lib Abu Nasr

Farobiy "Baxt-

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug' ibn Tarxon al-Farobiy (873-950 yy. O'tror) Islom ilmlari g'oyatda rivojlanib, kuch - qudratga to'lib, butun islom olamida, xususan Samarqand, Buxoro, Xorazm va Bog'dodda ko'plab ilmiy markazlar vujudga kelgan bir ajoyib asrda yashab ijod qildi. Alloma yashagan davrga kelib islom olamida Qur'on ilmlari, ayniqsa tafsir ilmi taraqqiy



etgan, hadis ilmi insoniyat tarixida misli ko'rilmagan darajada rivojlanib, o'zining yuksak cho'qqisiga Yetgan hamda to'rtta fihiy mashab yuzaga kelib, musulmon xalqlari ichida mustahkam islom qonunshunosligi vujudga kelgan edi.

¹⁵ И.Каримов. "Ўрта асрлар шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferentsiyadagi nutqi. Malaka.uz.

saodatga erishuv xaqida" nomli asarida ta'lim va tarbiya so'zining lug'aviy ma'nosini ta'rif etadi. Uning yozishicha, xalqlar va shahar aholilarida ahloq, odob, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilish uchun insondan zo'r kuch va quvvat talab qilinadi. Bular faqat odamga ta'lim va tarbiya berish yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirib tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish, degan so'zidir.

Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish tajriba orqali o'rganishdir. Nazariy bilimlarni yo ustozlar, davlat arboblari o'rgatadilar. Sharq tarbiyachi olimlari Farobiy, Beruniy, Ibn Sinolar maktablarda yangi fanlardan til va adabiyot, og'zaki va yozma xisob, xandasa, til ilmi va jismoniy tarbiyani o'qitishni taklif qildilar. Ular bu o'qitish yo'l-yo'rig'i ilm-oluvchilarni aql-idrokni, jismoniy qobiliyatni o'stirishni, nafis zavq olish kabilarni shakllantirish uchun asosiy yo'l deb bildilar.

***Jahon madaniyatiga katta hissa
qo'shgan Markaziy Osiyolik
mashhur faylasuf, qomusiy olim
Forobiyning to'liq ismi Abu***

***Nasr Muhammad ibn
Muhammad ibn Uzlug' Tarxon.***



O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog'liq. Forobiy o'z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilgan va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitgani tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug'lanib, "Al-muallim as-soniy" – "Ikkinchi muallim" (Aristoteldan keyin), "Sharq Arastusi" deb yuritilgan.

Abu Rayxon Beruniyning aqliy ta'lim xaqidagi fikrlarini o'rganar ekanmiz, eng avvalo, uning ilm olish, bilishdagi ta'lim usuliyliklari, o'qish, o'qitish va o'quv qurollari, yozuv belgilari xaqida aytilgan fikrlari yuksak did bilan aytilgan bo'lib, o'rganishga loyiqdir. Beruniy Sharq ta'lim-tarbiyasida birinchi, balki jaxon fanida xam birinchilardan bo'lib qiyosiy tarbiyaga doir fikrlar bildiradi. Uning arab, hind, grek yozuvlari, o'qilishi, ulardagi maktab va o'quv vositalari xaqidagi fikrlarni "Xindiston", "Yodgorliklar" kitoblarida ko'plab misollarda uchratish mumkin.

Beruniy o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini asosan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Xindiston", "Mineralogiya", "Kitob as-Saydona" kabi asarlarida bayon etgan. Beruniy falsafiy qarashlarida insonning tabiatida tutgan o'rni, inson bilimlarining kelib chiqish, ong va tafakkurning borliqga munosabati, dunyoni bilish mumkinmi degan masalalarni diqqat bilan o'rgangan.

Yoshlarni zamonaviy fan va texnikaning, ilm fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib ularga yuqori malakali, rakobatbardosh mutaxassis bulishlari uchun bugungi kunda buyuk olimlaramizning ilmiy, tarbiyaviy qarashlaridan o'z ta'lim faoliyatimizda ijodiy foydalanish katta ahamiyatga egadir.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Tarbiya jarayoni va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi qarashlari.
3. Tarbiya metodlari. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.
4. Tarbiya turlari. Iqtisodiy tarbiya jarayoni va uning bugungi kundagi ahamiyati.
5. A.Navoiy, Z.M.Bobir, Farobiy Ibn Sinolarning tarbiya haqidagi qarashlari.

3-MAVZU. TA'LIM NAZARIYASI. TA'LIM

STRATEGIYALARI

3.1. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi. Didaktika tushunchasi. Ta'limning funksiyalari, kategoriyalari. Didaktik tamoyillar.

3.2. Ta'lim strategiyalari. Blum taksanomiyasi.

3.3. Hamkorlikda o'qitish. Konstruktivizm.

3.4. Ta'lim mazmuni, tashkiliy shakllari, metod va vositalari.

3.5. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosliklari.

3.1. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi. Didaktika tushunchasi. Ta'limning funksiyalari, kategoriyalari. Didaktik tamoyillar.

TA'LIM – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga amlga oshiriladi. Ta'lim




tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli xildagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, balki oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi. Ta'lim – inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individual psixik

rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ancha tezlashtiradi.

TA'LIMNING MAQSADI - mutaxassislikning modeli va davlat ta'lim standartlari talabiga mos shakllanadigan bilim, ko'nikma va malakalar tizimidan iborat. Maqsad asosida ta'lim va tarbiyaning mazmuni belgilanadi. O'qituvchi o'quvchi-talabaning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o'quv ishlarini olib borar

ekan, avvalo ta'lim jarayoni orqali uch vazifani hal qilishi unutmashligi kerak.



**TA'LIM - INSON KAPITALINI
TAKOMILLASHTIRISH VA
RIVOJLANTIRISH JARAYONI
SIFATIDA QARALISHI
MUMKIN.
"INSON KAPITALI"
TUSHUNCHASINI
BIRINCHILARDAN BO'LIB
A.SMIT ILMIY
MUOMALAGA KIRITGAN.
BUNDA U
"JAMIYAT A'ZOLARINING
DAROMAD
OLISH HUQUQINI BERUVCHI
TO'PLAGAN BILIMLARI VA
KO'NIKMALARI"NI
TUSHUNGAN.**

Ta'limga *ehtiyoj* muayyan kasbni o'zlashtirish, ma'lum lavozimni egallash, ma'lum darajada ma'lumot olish, qo'shimcha malakani o'zlashtirish, jamiyatda muayyan o'rinni egallash, mansab pillapoyalaridan ko'tarilish istagi bilan belgilanadi.

Ta'lim jarayoni pedagogik jarayonning ajralmas, muhim qismlaridan biri bo'lib u o'qitish, bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish masalalari bilan shug'ullanadi. Ta'lim nazariyasini "Didaktika" tushunchasi bilan ham ifodalanadi.

Didaktika (*didaktikos* – o'qitaman, o'rgataman) – ta'lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogik ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi. "Didaktika" atamasi ilk bor nemis pedagogi **Volfgang**



Ratke tomonidan "Didaktika, yoki ta'lim san'ati" (1613 y.) deb nomlangan ma'ruzasida qo'llanilgan. Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marotaba chex pedagogi **Yan Amos Komenskiy**ning "Buyuk didaktika" (1657 y.) asarida ochib berilgan.

Didaktikaning o'rganish obekti o'quv jarayoni, o'quv jarayonining rivojlanish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari va shakllaridir. Ta'lim jarayonining asosiy mohiyati tarixan to'plangan ijtimoiy bilim va tajribani yosh avlodga Yetkazish, avlodlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ma'lum tizim orqali amalga oshirish bo'lib hisoblanadi.

DIDAKTIKANING BAHS DOIRASI

NI MA'UCHUN O'QITISH? KIMNI O'QITISH?	QANDAY ASOSDA O'QITISH?
TA'LIMNING MAQSADI	TA'LIMNING QONUN, QONUNIYAT, TAMOYIL, QOIDALARI
QANIMANI O'QITISH?	QANDAY O'QITISH?
TA'LIM MAZMUNI	TA'LIM METODLARI TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI TA'LIM VOSITALARI

DIDAKTIKANING ASOSIY KATEGORIYALARI

O'rgatish – ta'lim maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati

O'rganish – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi

O'qitish – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan talabalarining tartiblangan o'zaro harakati

Ta'lim – o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi

Bilim – biror fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi

Ko'nikma – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash.

Malaka – atomatlashgan holatga o'tgan ko'nikma, talomillashganlikning yuqori darajasi.

Maqsad (o'quv, ta'limiy) – o'qitish nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida nimaga safarbar etilishi.

Mazmun (o'qitish, ta'lim) – talabalar o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malakalar, faoliyat va fikrlash usullari tizimi.

Tashkil etish – qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

Shakl – o'quv jarayonining mavjudlik usuli, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq.

Metod – o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li.

Vosita – o'quv jarayonini predmetli qo'llab-quvvatlanishi. Vositalarga o'qituvchining jonli nutqi, keng ma'noda uning mahorati, darsliklar, jihozlar va boshqalar kiradi.

Natijalar (mahsullar) – o'quv jarayonining so'nggi natijasi, belgilangan maqsadlarni amalga oshganlik darajasi.

Didaktik tamoyillari
quyidagilardan iborat:

- **ta'limning ustuvorligi** - uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;


- **ta'limning demokratlashuvi** - ta'lim va tarbiya uslublarining tanlanishida o'quv yurtlarining mustaqilligini kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiat tizimiga o'tilishi;

- **ta'limning insonparvarligi** - inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;

- **ta'limning ijtimoiylashuvi** - ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlarni shakllantirish;

- **ta'limning milliy yo'naltirilganligi** - ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotining o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

- **ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi**, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;



• **iqtidorli yoshlarni aniqlash**, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

O'zbekistonda zamonaviy ta'lim tizimi quyidagicha:

- maktabgacha ta'lim
- umumiy o'rta ta'lim
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi
- oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura)
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim
- kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish
- maktabdan tashqari ta'lim

3.2. Ta'lim strategiyalari. Blum taksonomiyasi

O'qituvchilarni o'rgatuvchi ko'p strategiyalar mavjud, ulardan foydalanish auditoriya doirasida harakatlarni rejalashtirish, yuqorida ko'rsatilgan tizimlarni ta'riflaydi. Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- O'ylash malakalar strategiyalari (De Bono's Six Thinking Hats and Mind Mapping);

- Ko'p marotabali aqliy qobiliyatlar Gardners;

- Blum Taksonomiyasi - Bloom's Taxonomy¹⁶ - bilish va emotsional

sohalari;

- Tafakkur odatlari (16 qobiliyat) - Art Costa

- Hamkorlikda o'qitish

- Aqliy faoliyatga asoslangan o'rganish **Blum taksonomiyasi**.

¹⁶ Lea Chapuis, Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-10 p



Benjamin Blum
(1913-1999)

Amerikalik psixolog-pedagog Blum taksanomiyasi asoschisi.

1956 yilda Bendjamin Blum ta'lim ruhshunoslardan iborat bo'lgan guruhni boshqargan. Bu guruh o'rganish jarayonida muhim bo'lgan aqliy darajalar ketma ketligini tasniflash jarayonini rivojlantirgan.

1956 yilda Bendjamin Blum ta'lim ruhshunoslardan iborat bo'lgan guruhni boshqargan. Bu guruh o'rganish jarayonida muhim bo'lgan aqliy darajalar ketma ketligini tasniflash jarayonini rivojlantirgan. Keyinchalik bu taksonomiya degan nom olgan va uchta bir biri bilan o'zaro qo'shilgan sohalar hisoblangan: bilim sohasi, psixomotor va emotsional sohalar. Bilishga oid sohada asosiy toifalar quyidagilar:

Tushunchalarni bilish: ma'lum faktlar, o'ziga xos xususiyatlar bilan yo'llar va vositalar aloqasi. Shu Yerda bilim qanday qilib yodlab olish (eslatuvchi) ma'noga ega, yoki avval o'rganilgan ma'lumot. Aniqlaydi, ta'riflaydi, sanab beradi, identifikatsiya, ro'yxatlar, nomlar, leybllar aytadi, o'qiydi, yozuv qiladilar, qayta tiklaydilar, tanlaydilar, arz qiladilar, tasavvur qiladilar.

Tushunish: axborotga oid ahamiyatli materiallarni tushunish (anglash). Ta'riflaydilar, tasdiqlaydilar, aylantiradilar, muhokama qiladilar, baholaydilar, tushuntiradilar, umumlashtiradilar, misollar keltiradilar, mazmunga ega, xulosa qiladilar, tushunadilar.

Murojaat qilish: avval o'rgangan ma'lumotlarni yangi va aniq vaziyatlarda foydalanish, muamollarni qaysilarida yagona yoki optimal javoblar borligini Yechish uchun. Qonunlarni boshqaradi, yorug' aniq ifoda qiladilar, baholaydilar, diagrammalarni hisoblaydilar, quradilar, aniqlaydilar, rivojlantiradilar, topadi, amalga oshiradilar, o'z ichiga oladilar, oldindan tashxis quyadilar, tayyorlanadilar, munosabatga ega bo'ladi, xabar beradilar, ko'rsatadilar, Yechadilar, foydalanadilar.

Analiz: turli xulosalarni rivojlantirish uchun axborotga oid materiallarni ularni tashkil etuvchi qismlarga ajratadilar, ushbu ma'lumotlarni tadqiqot qilish hamda umumlashtirishni qo'llash uchun sabablar yoki omillarni izlab topadilar. Ajratadilar, korrelyatlar, diagrammalar farqlanadi, farqini ajratadilar, namoyish qiladilar, xulosalarni olib chiqadilar, chegaralaydilar, ustuvorligiga qarab ajratib oladilar.


Sintez: olingan natijalarni umumlashtirish uchun ijodiy yoki turli yo'nalishlarda avvalgi bilim va malakalardan foydalanib, yangi o'ziga xos original butunlikni yaratish. Moslashadilar, kutadilar, mexonlar bo'yicha tasniflaydi, hamkorlik qiladilar, birlashadilar, xabar beradilar, tahlil qiladilar, qarama qarshi quyish, loyihalashtiradilar, ishlab chiqaradi, Yengillashtiradilar, anif ifoda qiladilar, amalga oshiradilar, individuallashtiradilar, boshlaydilar, birlashtiradilar, modellarni rejalashtiradilar, taraqqiyot qiladi, tuzilmalarni qayta ko'rib chiqadilar, almashtiradilar, tasdiqlaydilar.

Baholash: materialni qadriyatlar asosida baholash, shaxsiy tashkil etilgan qadriyatlar asosida, mahsulotning natijasini belgilaydi, to'g'ri yoki noto'g'ri javob berishini aniqlashdan iborat. Baholaydilar, tahlil qiladilar, qarama qarshi quyadilar, tanqid qiladilar, tanqidiy tahlillar tuzadilar, hal qiladilar, himoya qiladilar, interpretatsiya, takroran rivojlantiradi, korrektsiya, qo'llab-quvvatlashadi.

Ko'p marotabali qobiliyatlar (GARDNER'S)

Gardner qobiliyat tushunchasini " muammolar bo'yicha qaror qilishga ega yoki bitta yoki ortiqroq ko'rsatkichlarga ega narsalarni

Bloom's Taxonomy



sozlash madaniyati" deb belgilaydi (Gardner & Hatch, 1989). Madaniy va biologik tadqiqotlardan foydalanib u Yettita qobiliyatdan ibrat ro'yxatni ifodaladi. Gardner ularni quyidagicha aniqlaydi:

1. **Mantiqiy-matematik qobiliyat** – namunalarni topishdan iborat bo'lib, deduktiv va mantiqan o'ylash sababi. Ushbu qobiliyat ko'pincha ilmiy va matematik tafakkur bilan bog'liq.

2. **Lingvistik qobiliyat** - tilga ega mahorat borligini o'z ichiga oladi. Ushbu qobiliyat tilni samarali boshqarishni nazarda tutadi, ritorik yoki she'riyat usulda gapirish uchun. Bu hamda tildan ma'lumotni esda tutish vositasi sifatida foydalanish mumkinligini anglatadi.

3. **Fazoviy qobiliyat** - muammolarni Yechish uchun bittaga boshqarish va aqliy tasvirlarni yaratish qobiliyatini beradi. Ushbu qobiliyat vizual sohalar bilan cheklanmagan; Gardner belgilaydi, fazoviy qobiliyat ko'r bolalarda ham yaxshi shakllangandir.

4. **Musiqali qobiliyat** – musiqiy tovushlar, ritmlar va topshirishlarni tuzish va tanish qobiliyatni o'z ichiga oladi. (Odamda ushbu qobiliyatni o'stirish uchun eshitishga oid funktsiyalar talab qilinadi, tovushni bilishga nisbatan, ritm zarur emas).

5. **Jismoniy-kinestatik qobiliyat** – xususiy badan harakatlarini aqliy qobiliyat orqali moslashtirish hisoblanadi. Ushbu qobiliyat keng tarqalgan fikrga qarshi chiqadi, nimaga aqliy va jismoniy faoliyat o'zaro bog'lanmagan.

6. **Shaxsiy qobiliyatlar** – o'z ichiga o'zaro bog'langan histuyg'ular va boshqalar maqsadlarini oladi, va chuqur shaxsiy qobiliyat – xususiy histuyg'ular va istaklarni tushunishni ifodalaydi. Bu ikki qobiliyatlar bir-biridan alohida deb hisoblanadi. Biroq, ko'pchilik madaniyat va o'xshashligi tufayli ular tez-tez ulanadilar.

7. **Tabiat qobiliyati** - tabiiy mavjudodlarni tanimoq insoniy qobiliyati deb aniqlaydi (zavodlar, hayvonlar) va shu bilan boshqa o'ziga xos tabiiy dunyoning xususiyatlarga sezuvchanligi (bulutlar, tog'li konfiguratsiyalar).

Garchi ushbu qobiliyatlar anatomik bir-biridan ajratilgan bo'lsa ham, Gardner tasdiqlashicha "qobiliyatlar juda ham kamdan kam

alohida ishlatiladi. Odamlar malakalarni rivojlantirishda yoki muammolarni hal qilishda qobiliyatlardan bir vaqtning o'zida foydalaniladi va bir birini qo'shimchalar bilan to'ldiradilar".

Ta'limiy ahamiyati:

*Pedagoglar uni tan olish kerakligi va keng diapazon iste'dod va malakalarini ko'proq o'qitish kerakligini nazarda tutadi. Boshqa ahamiyatli tomoni, pedagoglar tomonidan berilayotgan materiallar hamma qobiliyatni talab **Ko'p martali qobiliyat** qiladi, shuning uchun ham ularni tizimli **nazariyasi** usulda berishi shart. Qobiliyatlarning keng to'liq to'plami faollashtirib, ushbu harakat tarzida ta'lim berib, materialni chuqur tushunish jarayonini Yengillashtirish mumkin.*

Hamma talabalar auditoriyaga turli xildagi rivojlangan qobiliyatlar bilan keladilar. Qachonki ma'lumotlarni o'rganish uchun o'ziga xos harakat tarzida berilsa, bu materiallar talaba uchun Yengil (yoki qiyin) oydinlashadi. Odatda bu **qanday uslubda** o'rgatiladi deb eslatib o'tiladi.

Ko'p ta'limiy uslublar auditoriyada yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham o'qituvchi mazkur usulni amaliyotga to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlashga imkoniyati bo'lmasligi mumkin. Chunki, bu usullar auditoriyada yuzaga kelgan. Biroq, o'qituvchi talabalarga rivojlangan qobiliyatdan foydalanishni narsani tushunishda ular kuchsiz qobiliyatdan foydalangan xolda tushuntirishi mumkin. (Lazear, 1992).

Aqliy tafakkurga asoslangan o'rganish

Aqliy tafakkurga asoslangan o'rganish (from Caine & Caine: Reinventing Schools through Brain Based Learning, Educational Leadership, 1995).



Aqliy tafakkurga asoslangan o'rganish nusxa ko'chirishni

muhimligini ta'kidlaydi, ya'ni haqiqatdan ham miya buyumlarni mantiqqa mos emas yoki xech qanday ahamiyatga ega

emasligini osonlik bilan o'rganmaydi. Mendoimki, bizning tabiiy moyillik axborotni birlashtirishdan iborat bo'lsa, biz ajratib quyilgan ma'lumotlarni

o'rganishga qarshilik ko'rsatamiz. Chunki o'ziga xos yo'riqnomalar xususiyatlari doimo katta maqsadlarga bog'lanadilar, o'qituvchilar va talabalar murakkab tarixiy mavzular va metaforalardan foydalanishlari lozim.

Miyaga asoslangan o'rganishning asosini miya tashkil etadi. Chunki, miya miya – bu parallel protsessor – bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalarni bajaradi. Shuning uchun hamma ma'nosi bor narsalarni o'rganish murakkab va har doim ham to'g'ri emas hisoblanadi. O'rab turgan dinamik oralqini tashkil etish uchun o'qituvchilar hamma bor ma'nalardan foydalanishlari kerakligini bildiradi. O'qituvchilar ma'lumotlarni uzatish tabiiy shartlarini afzalligini inkor qilish kerak, chunki talabalar imkoniyatlari va ko'rsatmalaridan kelib chiqib, o'rniga tekshirish va tajriba o'tkazishni tashkil qilish – bu konstruktivizmning asosiy yo'li hisoblandi.

Miyaga asoslangan o'rganish tadqiqot natijalari auditoriyadagi muhit uchun ahamiyatlidir:

Boyitilgan o'rganilayotgan atrof-muhit ko'pchilik sensor va tilga oid voqealar bilan aqliy jarayonlarni rag'batlantiradi (Wolfe, 1996).

Shunday ekan ekologik nashr va rag'batlantiradigan material auditoriyada HAMMA yoshdagilar talabalar uchun birinchi o'rinda. Boyitilgan atrof-muhit o'z ichiga auditoriyani formal va norasmiy shart-sharoitlarni olish kerak: normaga yaqin yoritish, suvning va xavoning tozaligi, real dunyoviy va multisensor voqealar, ko'p modallik voqealar, haq-huquq talishish va harakatlar, vaqtning katta egiluvchanligi (ikki soatlik bloklar) va boshqa imkoniyatlar yaratish (Jensen, 1996).

Adekvat ovqatlanish. Ovqat moddalaridan ishlab chiqarilgan ximikatlardan, birinchi o'rinda aqliy rivojlanish va harakat qilish bilan bog'langan. Qachon bolalar to'yimli ovqatga ega bo'lsalar, ular qanday zarur bo'lsa ovqatlansa, shunda statistika bo'yicha imtixonlarda yuqoriroq baholar oladilar, maktabga nisbatan ijobiy munosabat namoyish qilishadi va sanash aniqligi va tezligini

namoyish qiladilar (Dunn & Milgram, 1993). Ertalabgi oqsil normasiga Yetarli nonushta talabalarga kamroq xatolar qilishiga yordam beradi. Nonushtani o'tkazib yuborgan yoshlar lanch paytida ko'proq ovqat iste'mol qilishga qodir va kun bo'yi o'zini quvvatsiz his qiladilar?

Minimal stress. Bolalar tomonidan surunkali emotsional kuchlanish ularni o'qishi uchun xech nimani qoldirmasdan miya va jamiyat batamom to'yimli moddalarini tugatishga majbur etadi.

Emotsional qobiliyat. Miya faoliyati bo'yicha yangi tadqiqot ko'zlaydi, hayajonlar – aqliy idrokning ko'rsatkichi emas, qobiliyatning asl me'yori bo'lishi mumkin. (Goleman, 1995). Emotsional qobiliyat – hayajonli qobiliyatga nisbatan o'qituvchi va talabaning ishining sifatini o'lchaydigan, standart testlarga asoslangan odamlar muvaffaqiyatlarining yaxshi bashorat qiluvchi bo'lishi mumkin.



3.3. Hamkorlikda o'qitish. Konstruktivizm.

Hamkorlikda o'qitish muvaffaqiyatli ta'lim strategiyasi bo'lib hisoblanadi. Chunki, kichik guruhlarda turli qobiliyatlarga ega bo'lgan talabalar o'zlarining qobiliyatlari darajalari bilan, o'rganilayotgan materiallarni, tushunchalarni yoki narsalar ma'nosini yaxshi angalishga qaratiladi. Guruhning har qaysi a'zosi nafaqat o'rganish uchun ma'sul bo'ladi, shu bilan birga guruhning boshqa a'zolariga yordam berishi shart. Bu usul akademik Yetishuv va madaniy tushunish darajasini rivojlantirishga asoslanadi. Deyarli 50 yillik tadqiqotlar va bir qancha taqdimotlardan so'ng, tadqiqotchilar o'rtasida kuchli kelishuv mavjudki, hamkorlikdagi

¹¹ Pollitt, Leibel, & Greenfield, 1981, p.77.

o'qitish usullari odatda talabalar faoliyatida ijobiy taasurotlar keltirib chiqargan. Mazkur usul talabalar hamda har xil etnik guruhlar o'rtasida munosabatlarni yaxshilaydi va ular orasidagi jiddiy o'zgarishlarga olib keladi. Biroq, sifat yutuqlari va boshqa ijobiy natijalar hamkorlikda ishlash uslublarni bajarishiga bog'liq.

Ular quyidagilar bilan



tavsiflanadi: **ijobiy o'zaro bog'liqlik va individual ma'suliyat.**

Guruhning vazifasida har qaysi qatnashuvchi yakka tartibda ma'lum bir qismga ma'sul

hisoblanadi. Agar guruh qatnashchilari hamkorlikda bo'lmasa – boshqa so'zlar bilan aytganda, guruh qatnashchilari ijobiy ma'noda o'zaro bog'liq deb hisoblanadi; masalan, ikki tomonlama immersion dasturlarda ikki tilli bo'lishi uchun ingliz spikerlar hamkorlik qilishga majbur.

Ayrim hamkorlik tadqiqot usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Guruh tadqiqotlari yuqoriroq tablarni keltirish, guruh loyhasini amalga oshirish uchun ko'nikmalarni rivojlantirish;

Jigsaw – (mozaika) – hikoyaning materiali bilan foydalaniladi, har qaysi qatnashuvchi mavzuning ma'lum qismi o'rganishi uchun ma'sul hisoblanadi. Guruhlarda "ekspert"lar sifatida shakllantiriladi. Har bir eksrert o'zlarining guruhlarida material natijalarini qolgan guruh a'zolariga Yetkazadilar;

Boshqariladigan o'qish va boshqa integratsion o'qitish strategiyalari.

"Shunday qilib, talabalar hamkorlikdagi guruhlarda ishlasa, qaysilarida "bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun ishlaydi", guruh qatnashchilari emotsional va akademik yordam oladilar, chunki o'quv jarayonida turgan ko'plab to'liqlarga qarshi ishlashga yordam beradi" (Cooperative Learning – Response to Diversity, California Dept. of Education 2000).

Konstruktivizm. Konstruktivizm bo'yicha o'rganish juda faol jarayon hisoblanadi. Konstruktivistlarning aniqlashicha, passiv kishi haqiqatda o'rganishga qodir emas. Konstruktivizm tadqiqotlarida har bir individual tuzilmalar yoki uning dunyoviy shaxsiy bilimlar uyush namuna deb hisoblanadi, har bir faktning, tajribaning yoki sub'ektiv usulda tushunishni ulash odamni kengroq dunyoga asoslangan ratsional munosabatga olib keladi. (Wilson & Daviss, 1994).

Modomiki, olimlarning tadqiqot natijalariga ko'ra konstruktivizm modeli miyaning mazmunga ega bo'lish ularning eng yaxshi tabiiy usulidir deb, ko'rsatadi (Feldman, 1994). Bu hisobvoriistik modellarga nisbatan to'liq kontrastda turadi. Ushbu nazariya oxirgi IX va XX asrlarda dominant bo'lib turgan. "Odamlar vazifalarni va mukofotlarni kutishgan edi, ularning miyalari toza qog'oz bo'lgan. Ular yo'riqnomalar kutishgan va qobiliyat deyarli to'liq darajada tug'ilgan deb hisoblangan" (Abbot & Ryan, p. 67, 1999). Konstruktivizmning o'rganish shakli miyada bor asosiy va o'rgangan ma'lumotlarni tekislaydi.

Tafakkur qilishga odatlar – 16 aqliy xulq harakatlar. Tafakkur qilishga odatlar – intellektual xulqning xillari xususida amerikalik olimlar doktor Arthur Costa va Dr Bena Kallickning to'rt tomlik "Tafakkur qilishga odatlar": Rivojlanish bilan bog'langan qator



(2000) nomli asarida keltirilgan. Ularning fikricha, maktablar va firmalarda odamlar xalqaro tarmog'ini yaratish, to'la fikrlashni o'rganish uchun qandaydir tuzilish jamg'arma va uyushmalarni yaratish kerak. "Tafakkur qilishga odat" ning ma'nosi - muammolar bilan to'qnashganda va tayyor javoblar bo'lmagan darhol ma'lum bo'ladi. Tafakkur qilishga odat talabalarga maktabda va kundalik hayotida yordam berishi mumkin, chunki ular muammolar, dilemmalar va topishmoqlar bilan har kuni to'qnashadilar. Bu odat qachonki siz javobni bilmasangizda o'zingizni qanday tutish kerakligini ko'rsatadi. Costa va Kallick

tasdiqlaydilarlarki, "tanqidiy fikrlashning nafaqat axboroti ma'lum, balki qanday harakat qilish kerakligi ham mavjuddir".

"Qachon o'qituvchilar ataylab tanqidiy fikrlashni qabul qiladilar va baholaydilar, bu ularning loyiha harakatlarini o'zgartiradi, ularni mazmun tanlashni aniqlaydi va ular baholashini oshiradi. Natijalar yashaydigan doira qancha keng bo'sa, shuncha har bir odatning qadriyatlariga ularning ta'siri kattaroq imkoniyatlarini ko'rish mumkin"¹⁸. **Art Costa**

1. Impulsivlikni boshqarish – haddan tashqari impulsiv bo'lmaslik. Impulsiv odamlar birinchi fikrga asoslanib harakat qiladilar.

Agar odamlar o'zining impulsiv boshqarsalar, ular:

- O'zining maqsadlarini identifikatsiya qiladilar va qayta ko'rib chiqadilar;

- Muammolarni Yechishga nisbatan strategiyalar rejasini tuzadilar;

- Har xil strategiyalarni tekshiradilar va natijalar to'g'risida oldindan o'ylab ko'radilar.

2. Boshqalarni tinglash – tushunish va anglash bilan:

- Haqiqatdan boshqalarni diqqat bilan eshittadilar.

- Qachon siz boshqa odamlar va tuyg'ularni tushunishni namoyish qilsangiz – siz ularni anglaysiz.

- Siz o'zingizni boshqa odam o'rniga sig'dira olasizmi?

- Siz haqiqatdan ham boshqalarni tinglaysizmi yoki undan keyin gapirish uchun navbatni kutasizmi?

3. Moyillik bilan uylash⁶

Egiluvchan tafakkur qiladiganlar moyilikka ega:

- Ular qayta ko'rib chiqishga rozilar

- O'z fikrini ifodalashga dadil

• Nisolarni bir-biriga yon berish orqali Yechadilar 7 Siz barcha imkoniyatlarni ko'rib chiqasizmi?

• Siz to'rtburchak chegarasi tashqarida uylaysizmi?

4. Bizning o'ylashlarimiz haqida uylash (Metacognition). O'zining o'ylashlarini tushunish. Sizning boshingizda davom etadigan o'ylashlarni ta'riflash bu:

• Muammoni Yechishdan avval rejani tuzish;

• Bizning o'ylashlarimizni tushunish; 8 Bu xaqda nima o'ylaysiz?

5. Aniqlik va takomillashuv uchun kurash.

• Aniqlik, yorug'lik va takomillashtirishni tilab;

• O'z ishingizni tekshirish uchun shart-sharoit;

• O'z ishingizni qanday tekshirayapsiz?

6. Muammolarni so'rash va bayon qilish. Yaxshi savollar berish – bu intellektual odamlarning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Talabalar savollar berish qobiliyatni o'zlarida rivojlantirish va o'zi uchun muammolarni topishi shart – bu nafaqat o'qituvchining roli. Siz shubhalar keltirasizmi va ma'lumotlarni tekshirasizmi?

7. O'tgan eski bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash. Biladigan narsalarni barpo qiling. Intellektual odamlar tajribalaridan o'rganing. Bitta tajribadan ahamiyatli manfaatlarga asoslaning va natijalardan yangi vaziyatlarda foydalaning. Siz endi nimani bilasiz, sizning yangi faoliyatingiz qanday?

8. Aniqlik va yorug'lik bilan o'ylash va xabar berish.

Intellektual odamlar aniq yozma va og'zaki shaklda aloqa bo'lishiga harakat qiladilar. Aniq tildan foydalanishga harakat qiladilar, to'g'ri nom va universal leyblar va analogiyalardan foydalanishga urindilar. Siz umumlashtirish va buzib ko'rsatishlarni ishlatmaysizmi? Talabalarni noaniq va nomantiq tildan foydalanishga rag'batlantirasizmi?

10. Hamma his-tuyg'ular orqali ma'lumotlarni yig'ish.

¹⁸ Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-10 p

Intellectual odamlar barcha ma'lumot miyaga sensor yo'llar orqali ta'sir qilishini biladilar: ta'mga oid, idrok qilish, kinestetik, eshitishga oid, ko'rishga oid. Bu usullarni maksimallashtirish bizning miyada ma'lumotni yanada kengroq qiladi. Qanday qilib miyani harakatga keltirasiz? Aqliy harakatni yaxshilash uchun musiqani yoki san'atni siz ishlatasizmi?

11. Yaratish, aks ettirish va innovatsiyalar. Hamma odamlarda yangi, original o'ziga xos narsalar, usullar va qarorlar keltirish qobiliyati rivojlangan bo'lsa, ulardan foydalanish xususiyatlariga ega. Ijodiy bo'lish va tavakkal qilish – odamlarga botirlik taqdim etadi, ular jamoaviy muhokamani o'tkazish kerak va muammolarni Yechish qarorlarni yaratishi lozim. Siz ijodiy deb hisoblanasizmi? Siz tavakkal qilasizmi va chegaralarni ochishga qobiliyatingiz mavjudmi?

12. Qiziqish bilan javob berish va innovatsiyalarga ochiqlik.

Dunyo haqidagi bilimlarni o'rganishda qiziquvchan bo'lish, qiziquvchanlik va muammolarni Yechish odamlarga fikrlash uchun qadam qo'yishga yordam beradi. Intellectual odamlar qiziquvchan va atrofdagi narsalarga qiziqish bilan qaraydilar. Bu muhim hisoblanadi, qachonki biz muammolarni kengaygan mustaqillik bilan Yechishga qodir bo'lsak. Intellectual odamlar ixtiyoriy ravishda butun hayoti davomida o'rganishni davom ettiradilar. Siz nimani qiziquvchan deb hisoblaysiz?

Atrofizda sizni nima qiziqtiradi?

13. O'ziga xaf-xatar javobgarligini olish. "Oldinga borishning yagona usuli – rad etish uchun tavakkallik qilishdir." (Briggs, 1999). Egiluvchan odamlar o'rnatilgan chegaralar tashqarisiga chiqishga harakat qiladilar. Ular tartibsizlik, ishonmaslik va yuqori xaf-xatarlarni rad etishni me'yordagi jarayonnig bir bo'lagi sifatida qabul qiladilar va oldinga ishonch bilan qarab, omadsizlikni qiziqarli deb qabul qiladilar. Sizda ishonchlikka ehtiyoj bormi yoki shubha qilishga moyillikmi?

Talabalarizga aniqlash jarayoni va javoblarni topish qiziqarlirmi?

14. Xazil mutoyibadan foydalanish. Kulgi hamma odamlarni birlashtiradi. Uning ruhiy funktsiyalarga ijobiy samarasi me'yorda puls passayishini, endorfinlar kamayishini, qonda kislorod kupayishini o'z ichiga oladi. Hazil mutoyiba, aytishlaricha, ijodiy potentsialni ozod qiladi va shunday yuqori darajadagi amaliy malakalarni keltiradi, vizual qiyofalar, kutish va analogiyalarni yaratadi.

Sizning talabalargiz odamlarning turli vaziyatlarda tanishi mumkin mi va ularning qaysi biri haqiqatdan ham qiziqarli?

15. O'zaro bog'langan uylash. Odamlar – ijtimoiy mavjudotdir. Biz urug'larga yig'ilamiz va va bir birimizdan ilhom olamiz. Muammoni Yechish jarayonida har qanday kishining yolg'iz harakat qilishga imkoniyati yo'q. Bu jarayon shunchalik murakkab bo'lganidan kishini ko'proq imkoniyatlarni ko'rib chiqishga undaydi.

Siz o'z g'oyalaringizni guruhda isbotlay olasizmi?

Siz jon deb tanqidiy fikrlarni do'stingizdan qayta aloqa orqali olishga tayyormisiz?

16. Uzlüksiz o'rganish. Tafakkur qilishga odatlangan odamlar hayoti bo'yicha doimo o'rganadilar. Ular doimo mukammallashtirish uchun kurashadilar. Doimo o'sish, doimo o'rganish, doimo o'zgarish na narsalarni o'zgartirish uchun yangi usullarni aniqlashga harakat qiladilar. Siz o'qish va imkoniyatlar yaratish uchun yangi vaziyatlarga qarshi turasizmi?

Sizda doimo hamma narsalarga javoblarni bilmasligingiz va shuni anglashdan qo'rqmasligingiz haqidagi tushuncha bormi?

3.4. TA'LIM MAZMUNI. MALAKA TALABLARI. TA'LIMNING TASHKILIY SHAKLLARI, METOD VA VOSITALARI.

Ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda, o'quvchilarning o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi.

Ta'limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

1. Ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlar, ijtimoiy tuzimning xususiyatlari.

2. Davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad va vazifalar.

3. O'qitish qoidalaridan kelib chikadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlari va boshqalar) e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklarda ifodalangan.

O'quv rejasi - deb, o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilini tuzilishini belgilab beruvchi davlat xujjatiga aytiladi.

O'quv dasturi - o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturi xar bir o'quv fanining o'qitish uchun ajratilgan bilim xajmi, tizimi va g'oyaviy - siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan davlat xujjatidir. **Darslik** - o'quv jarayonining zarur qismidir. Ko'p vaqtlardan beri u o'qitishning eng muhim vositasi xisoblanar edi.

Xar bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir.

Standart - ta'limda yaratilgan me'yoriy reja, dastur, darsliklarni o'zlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasidir.

Ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va ma'naviy sifatlarning eng quyi miqdori ilmiy asoslarda belgilab berilgan rasmiy pedagogik hujjat - **davlat ta'lim standarti** hisoblanadi. Standartni ishlab chiqishda talabani xaddan tashqari zeriktirib yubormaslik talablariga rioya qilish, ya'ni u talaba yoshiga mos, uni bajarishga qurbi Yetadigan darajada bo'lishi kerak. Bunda albatta, ta'lim oluvchini qiziqishi, xohishi, ehtiyoji hisobga olinishi lozim.


Davlat ta'lim standartlarining ikki asosiy vazifasini alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin.

1. Talabalarga beriladigan ta'lim mazmunining majburiy minimumlarini belgilash.

2. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga quyiladigan talablar majmuasini belgilash, bilim, ko'nikma va malakalarning minimal miqdorini belgilash.

Ta'limni tashkiliy shallari:

Ma'ruza (arabcha, leksiya (lotincha - "lectio") - o'qish) - o'quv materiallari, biror masala, mavzu kabilarning izchil, ma'lum bir tizimiga solingan bayonidir. Ma'ruza o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini, oliy o'quv yurtida dars berishning asosiy shakllaridan biridir. U talabalarning dunyoqarashini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ma'ruzada mavzuning asosiy savollari ketma-ketlik asosida yuritiladi.




Oliy o'quv yurtida o'qitiladigan ma'ruzalar o'z funksiyasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- Kirish ma'ruzasi;
- Yakunlovchi ma'ruza;
- Mavzular bo'yicha muammoli ma'ruza;
- Yo'l-yo'riq ko'rsatadigan ma'ruza;

• Obzorli ma'ruza. Ma'ruzalarning turlaridan qat'iy nazar barchasini funksiyasiga ko'ra muammoli ma'ruza tarzida o'qish mumkin.

O'quv jarayonini tashkil etishda seminar darslari alohida o'rin tutadi.

Seminar talabalarning bilimlarini mustahkam-lashni ta'minlovchi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qiluvchi o'quv jarayoni shaklidir. Seminar mashg'ulotlarining maqsadi talabalarning chuqur bilim



Seminar (lotincha – seminarium – manba, ko'chma ma'noda – maktab) – o'quv amaliy mashg'ulot shakllaridan biri. Asosan oliy o'quv yurtlarida, ilmiy to'garak, anjumanlarda qo'llaniladi. Seminar mashg'ulotlari talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltiradi.

Birinchidan, O'rganilayotgan fan yoki kursni chuqur o'rganishga yordam beradigan seminar darslari;

Uchinchidan, tadqiqot
xarakteridagi seminarlar.

Talabalarni mustaqil o'rganishga o'rgatadi.



berilgan topshiriqlarni bajaradilar va bu materiallarni o'zlashtirishga asos bo'ladi.

oladigan ta'lim shakllaridan hisoblandi.





Metod-yunoncha atama bo'lib, usul, yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metodlar (usullar) har qanday axborotni (maqsadni) uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi sinflarga ajratiladi:



1. Ma`ruza
2. Hikoya.
3. Tushuntirish.
4. Yo`riqnoma berish
5. Namoyish.
6. Ko`rsatish.
7. Videometod

2- GURUH METODLARI:

1. Kitob bilan ishlash 2. Laboratoriya metodi.
3. Mashq.
4. Amaliy metod




3-guruh metodlari:

1. Suxbat
2. Baxs.
3. Akliiy xujum
4. Ta'limiy o'yin.
5. Pinbort

4 - guruh metodlari

1. O'quv loyihalari
2. Keys-stadilar



ТАЪЛИМ ВОСИТАЛАРИ



Ta'lim vositalari - o'quv jarayonini tashkillashtirish uchun eng muhim ob'ekt hisoblanib, o'qituvchi va talaba tomonidan o'quv bilish faoliyatining qurolidek foydalaniladi.

Ta'lim vositalarini tanlashni aniqlovchi omillari:

- 1) Maqsadni belgilash;
- 2) O'quv axborot mazmuniga;
- 3) O'quv materialining yangiligi va murakkabligiga;
- 4) Yetakchi bilim manbai;

3.5. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosliklari

Yaponiya ta'limi tizimi. Yaponiya - juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehmatsevarlik va ishbiarmonligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va halqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rin tutadi. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo'yicha dunyoda 2o'rinda turadi.

Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini angladi¹⁹.

MAKTABGACHA Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor **TA'LIM** beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70%ni, qolgan 30%ni butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi – ularning hayotlarining maqsadlaridir.



Yaponlar bolaning erta voyaga Yetishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoshda – o'ziga ishonch hissini uyg'otish. 2 yoshda – amaliy san'at qo'l mehnatini ko'rsatish. 3 yoshda – burch hissini tarbiyalash. 4 yoshda – yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish.

5 yoshda – liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish.

Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O'g'ilga oilaning bo'lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni Yengishga o'rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar.

Bolalar bog'chasi Yaponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

¹⁹ Higher Education Bureau, Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology. <http://www.mext.go.jp/7-9>.

Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi – bolani maktabga tayyorlashdir. Bu Yerdan rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar o'tiladi. Individuallik, u qanchalik yaxshi bo'lmasin, o'quvchilarni o'ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi²⁰.

Boshlang'ich maktab ta'limning ilk 6 yilini qamrab

BOSHLANG'ICH

TA'LIM oladi va uning asosiy qismi hisoblanadi. Yaponiyada maktabga 6 yoshdan boriladi. Boshlang'ich maktabga 6 yoshdagi yapon bolalarning 99% qatnaydi. 99% yapon boshlang'ich maktablari davlat tasarrufida, 1% - xususiy. O'quv rejasiga yapon tili, gumanitar fanlar, arifmetika kabilar kiradi. San'at va hunar (yapon xusni xati), musiqa, uy xo'jaligini yuritish, jismoniy tarbiya, adloqiy odobnoma, akademik predmetlar hisoblanmaydi. Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy va bepul bo'lib, mashg'ulotlar aprel oyida boshlanadi. O'quv yili 3ta chorak – trimestrga bo'linadi. 1-chorak – 6 apreldan – 20 iyulgacha davom etadi, keyin yozgi ta'til boshlanadi. 1-sentyabrdan 2-trimestr boshlanadi va 26 dekabrgacha davom etadi. 26-dekabrdan 7-yanvargacha qishli ta'til bo'ladi. Oxirgi 3-trimestr 7-yanvardan 25-martgacha davom etadi. 25-martdan 6-aprelgacha bahorgi ta'til bo'ladi. Shu paytda o'quvchilar sinfdan sinfga ko'chadi. Chorak-trimestrlarning boshlanishi va tugallanishi turli maktablarda turli sanalarga to'g'ri kelishi mumkin. Boshlang'ich maktabni tugatgan o'quvchi **YAPONIYADA O'RTA VA KATTA MAKTAB TIZIMI**. o'qishni kichik o'rta maktabda davom ettirishi **KICHIK O'RTA MAKTAB – TYUGAKKO**. lozim.

Yapon tili, matematika, jamiyatshunoslik, etika, tabiiyot, musiqa, san'at, maxsus faoliyat, jismoniy tarbiya, texnik mahorat va uy xo'jaligini yuritish kabi majburiy fanlardan tashqari o'quvchilar chet tili, qishloq xo'jaligi yoki matematikadan



²⁰ Germany's Vocational Education at a glance. E-Mail: books@bmbf.bund.de Internet: <http://www.bmbf.de> 13-17.

chuqurlashtirilgan kurs kabi fanlarni tanlashlari mumkin.

Kichik o'rta maktab 3ta sinf 7,8,9-sinflarni o'z ichiga oladi va majburiy ta'limning oxirgi bosqichi bo'lib hisoblanadi. O'quvchilar yoshi 12 dan 15 yoshgacha bo'ladi. Xuddi boshlang'ich maktabdagiday, o'rta maktabning asosiy qismi davlat tasarrufida, 5%-xususiy. 2001 yil apreldan boshlab ingliz tili majburiy fan bo'lib hisoblanadi.

Ko'pchilik o'quvchilar bitta yoki bir necha maktab to'garaklari, qiziqishlari bo'yicha klublarga qatnashadilar. Bu darsdan keyin soat 18:00gacha ish kunlari, dam olish kunlari ertalabki vaqtni egallaydi.

Kichik o'rta maktabda o'tiladigan fanlar qatoriga ingliz tili, bir necha tanlov fanlar kiradi. Bu fanlarning tarkibi maktablarga bog'liq. Eng qiyin fanlar matematika va yapon tili hisoblanadi.

Yaponliklar farzandlarining eng yaxshi, yuqori ta'lim olishini juda hohlaydilar. Ta'limga bunday katta e'tibor "dzyuku" maktablarining yaratilishiga asos bo'ldi. "Dzyuku" – nufuzli o'quv muassasalariga tayyorlovchi maxsus kechki maktablardir. Bunday maktablarning analogi XVIII asrda yapon cherkovida paydo bo'lgan, hozirgi kunda dzyukular soni 100 mingdan oshiq.

"Kichik dzyuku"lar 5-6 o'quvchidan iborat bo'lib, o'qituvchining uyida shug'ullanadi. "Katta dzyuku"lar 5 mingga o'quvchilarni yig'adi. O'qish bu maktablarda soat 16:50dan 20:50gacha davom etadi, darslar dushanbadan jumagacha bo'ladi, haftalik nazoratni odatda yakshanba ertalabgacha belgilashadi. Katta (o'rta) maktab majburiy emasligiga

Katta (o'rta) maktab – kotogakko qaramay, unda 94% o'quvchilar tahsil oladilar (2005 yilgi ma'lumot). Katta o'rta maktab soni 55%ni tashkil etadi, shunga qaramay davlat va xususiy katta maktablar pullik. Katta o'rta maktabning 1-yil uchun dasturi hammaga bir xil, lekin keyingi 2 yil ichida oliy ta'lim olish maqsadiga ko'ra kursni tanlash nazarda tutilmoqda. Katta maktab dasturlari o'rta maktab va boshlang'ich maktab dasturlariga ko'ra xilma-xil, lekin o'quvchilarga bilimning u yoki bu sohasiga ixtisoslanishi bo'yicha imkoniyatlar yaratiladi²¹.

²¹ Higher Education Bureau, Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology.
<http://www.mext.go.jp/> 34-44.



holda amalga oshiriladi. O'rta maktabda o'zlashtirish ko'rsatkichiga ko'ra o'quvchi kirish imkoniyati bor bo'lgan katta maktab ro'yxatini oladi.

Odatdagi davlat maktablaridan tashqari pulli xususiy maktabakademiyalar (gakuenlar) bor. Shuningdek, umumdavlat maktabi maqomidagi "milliy maktablar" mavjud. Bu akademiya kirish uchun katta konkurs asosida alohida imtihonlar topshiriladi. Bir tarafdin akademiya yaxshi ta'lim dasturlari mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi oliy maktab yoki universitetga kirish uchun imkoniyat beradi.

Yaponiya hukumati OO'Yulari bitiruvchilarini o'qituvchi lavozimiga tayinlashda qattiq tanlov siyosatini olib boradi.

Katta o'rta maktabda yapon tili, matematika, tabiiyot, jamiyatshunoslik va b. majburiy umumta'lim fanlariga qo'shimcha holda o'quvchilar tanlov bo'yicha fanlarni taklif qiladilar, bu ingliz tili, yoki boshqa chet tillar, shuningdek, texnik va maxsus fanlar bo'lishi mumkin. 12-sinfda o'quvchilar o'zi uchun ta'lim profilaridan birini tanlashi kerak.

Ta'lim, fan va madaniyat vazirligi ko'rsatmasiga ko'ra, katta o'rta maktabda bilimlarni baholashda OO'YU tizimidan foydalaniladi. Bu har bir o'quvchi 12 yillik o'rta ta'limni tugatganligi haqida guvohnoma olishi uchun 80 kredit (zachyot birligi)ni yig'ishi

lozim deganidir. Masalan, yapon tili va zamonaviy yapon adabiyotini har bir kursini o'rganish natijalari bo'yicha 4ta kredit beriladi, yapon tili leksikologiyasi bo'yicha 2 kredit, klassik til bo'yicha – 2 kredit.

Yaponiyada kasb-hunar ta'limi

Yaponiyada katta o'rta maktabda o'qishni hohlamaganlar 5 yillik "texnik kollej"lar – kasbiy texnika bilim yurtlariga kirishlari mumkin. Lekin bu o'qishlarga kirish shunchalik oddiy emas, eng yaxshilaridan juda katta konkurs asosida qabul qilinadi, chunki Yaponiyada yuqori malakali ishchilar juda ham zarur.

Universitet o'rniga 2 yillik kollejga kirish mumkin, unda maxsus ta'lim beriladi. Bu kollejlarda yapon qizlarining 90% o'qiydilar va ayollar kasbini egallaydilar: tibbiyot hamshirasi, bolalar bog'chasi tarbiyachisi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, yuqori malakali uy xonimlari, aktrisa (seyyu).



Yaponiya kollejlari o'z maqomi bo'yicha bizning o'rta maxsus ta'lim muassasalari bilan teng. Ular kichik, texnologik, va maxsus tayyorgarlik kollejlariga bo'linadi.

Kichik kollejlarda gumanitar, tabiiy, tibbiyot va texnik fanlar sohasida tayyorgarlikning ikki yillik dasturini tavsiya qiladi. Bu kollej bitiruvchilari universitetning 2 yoki 3-kursida o'qishni davom ettirishlari mumkin. Kichik kollejlarga qabul to'liq o'rta maktab bazasida amalga oshiriladi. Talabgorlar kirish imtihonlari va undan kamroq "Birinchi bosqich yutuqlari testi"ni topshiradilar.

Yaponiya universitetlarida o'quv jarayonini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, umumilliy va maxsus fanlar aniq bo'lib o'qitiladi. Birinchi ikki yillikda barcha talabalar

umumta'lim tayyorgarligini oladilar. Bunda umumilliy fanlar: tarix, falsafa, adabiyot, jamiyatshunoslik, chet tillari o'tiladi, shuningdek, bo'lajak kasbi bo'yicha maxsus kurslarni eshitadilar. Ilk ikki yillikda talabalar tanlagan kasblari mohiyatiga chuqurroq kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, o'qituvchilar esa – talabaning kasblarining to'g'ri tanlaganliklariga ishonch hosil qiladilar va ilmiy salohiyatini aniqlashga erishadilar.



Tibbiyot xodimlari, stomatolog va veterinarlar 6 yil o'qishadi. Asosiy kursni tugatgach, bakalavr darajasi beriladi: gakushi. Ayrim mustasno holatlardan tashqari bitta universitetdan ikkinchisiga o'tish amalda yo'q. Lekin ba'zi universitetlar chet ellik talabalarni 2 yoki

3-kursga qabul qiladilar, shunda talabalarni o'tkazish bo'yicha maxsus imtihonlar o'tkaziladi (transfer examination)²².

Oliy o'quv yurtining tadqiqot ishlariga layoqati bor talabalari o'qishni magistraturada davom ettiradi. Yapon oliy o'quv yurtlarida, shuningdek, tinglovchilar, ko'chma talabalar, tadqiqotchi-talabalar va kollegial tadqiqotchilar bor

GERMANIYA DAVLATI TA'LIM TIZIMI

Germaniya ta'lim tizimi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Elementar ta'lim: maktab ta'limining 1-bosqichiga tegishli bo'lib, maktabgacha muassasalar kiradi. Asosan bular bolalar bog'chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlari bo'lib, bu Yerlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ota-onalar xohishiga ko'ra istiyoriydir.

²² Westbrook J, Durrani N, Brown R, Orr D, Pryor J, Boddy J, Salvi F (2013) Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries. Final Report. Education Rigorous Literature Review. Department for International Development.P. 333-344.

2. Ta'limning birinchi bosqichi. (Primastufe) boshlang'ich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O'qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi – bolalarga ta'lim Ining ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

3. Ta'limning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe I) "yo'nalishli bosqich" deb nomlanuvchi bosqichdir, unda bolalarni ularning iqtidoriga ko'ra o'quv muassasalarining kerakli turiga yo'naltiradi: asosiy maktablar, real maktablar, gimnaziyalar, kompleks maktablar. O'quvchilar ta'lim xaqidagi attestatni real va asosiy maktablarni bitirgachgina olishadi.

4. Ta'lim II ning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe II)ga gimnaziyaning yuqori sinflari, shuningdek kasbiy ta'lim va muassasalarda kasbiy ta'lim kiradi. Muassasalarda kasbiy ta'lim "dual tizim" deb ham ataladi, unda ta'lim va ishlab chiqarishda amaliyot 2 yil davomida olib boriladi, bu o'qishni tugatish o'rtta ta'limni tugatish bilan teng bo'lib, yakunida faqat kasbiy sohada o'qishni davom ettirish mumkin. Gimnaziya 3 yil o'qib, o'quvchilar umumiy shahodatnoma "Yetuklik attestati" – abitur oladilar, bu ularga istagan oliy o'quv yurtiga kirishga imkon beradi.

5. Ta'limning uchinchi bosqichi oliy ma'lumot haqida diplom beruvchi oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish o'quv muassasalari.

Maktabgacha ta'lim

Germaniya ta'lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim bolalar bog'chasi (Kindergarten)da amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga 3-6 yoshdan maktab yoshigacha borishadi. Rivojlanishdan orqada qolgan yoki yoshi mos bosqichga Yetmagan bolalar maktabgacha sinflarda (nem. Vorklassen) va maktablar qoshidagi bolalar bog'chasida (nem. Schulkindergarten) taxsil oladilar. Bu bog'chalar alohida FE qoidasiga ko'ra yoki maktabgacha sektorga yoki boshlang'ich ta'lim sektoriga bo'ysinadi.

Maktabgacha ta'lim majburiy emas, lekin ko'pgina rivojlantirishda orqada qolgan bolalar uchun majburiy hisoblanadi. Bolalar bog'chalari ta'limdagi quyi bosqichi hisoblanadi, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya tashkilotlari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasida.



Germaniyada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydilar.

Bolalar bog'chasida nutq o'stirish, bola shaxsini rivojlantirish, ijtimoiy tarbiya va o'yin muhim sanaladi. Har yili 30-iyun kuni 6 yoshga to'lgan bolalar maktabga borishlari shart. Birinchi darsgacha bo'lgan muddatda ular tayyorlov mashg'ulotlariga borishlari shart bo'lib bu darslar boshlang'ich maktablarda o'tkaziladi va bir necha nomga ega: "Vorbereitungsschule", "Vorschule", "Schulnachmittage".

MAKTAB TA'LIMI Germaniyada majburiy maktab ta'limi 6

yildan 19 yilni o'z ichiga oladi, demak maktabda ta'lim umuman oldanda 13 yilni tashkil etadi. Bu muddat tugagach, imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirib bo'lib, o'quvchi bitiruv guvohnomasini oladi va oliy o'quv yurtiga kirish xuquqiga ega bo'ladi. Germaniyada har bir maktab o'z Federal Yeri xokimiyatiga bo'ysunadi. Shu bois dasturlar, qoidalar va hatto o'qitish davomiyligi mamlakatning turli Federal Yerida turlicha.

GERda Federal Yerlar ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismlari uchun javob beradi. Barcha davlat maktablarida o'qish bepul. O'quvchilarga qisman bepul o'quv qo'llanmalar va darsliklar

beriladi. Diniy fanlarni o'qitish majburiy emas. O'quvchi 14 yoshida bu fanni o'qish yoki o'qimaslikni o'zi tanlaydi. Maktablarda bolalar va qizlar aralash o'qishadi. Ta'lim spektri Federal Yerlarning moliyaviy yordamidan foydalanuvchi turli tashkilotlarning xususiy maktablari bilan to'ldirib boriladi.

Germaniyada maktab ta'limi quyidagi maktab tiplariga bo'linadi:

1. **Boshlang'ich maktab (Grundschule)**
2. **Yo'nalish maktablari (Orientierungstufe)**
3. **Asosiy maktab (Hauptschule)**
4. **Real maktab (Realschule)**
5. **Gimnaziya**
6. **Umumiy maktab (Gesamtschule)**
7. **Maxsus maktab (Sonderschule)**

Germaniyada o'rta Nemis o'quvchilari boshlang'ich maktabni maktab tiplari: asosiy, bitirganlaridan so'ng umumta'lim maktabining **real, aralash maktablar va gimnaziya** 2-pog'onasiga boradilar. 5 va 6-sinflar, ularning tashkiliy jihatidan qat'iy nazar, avvalambor, bola kamol topadigan davr bo'lib hisoblanadi, bolalarning keyingi o'qish shakliga yo'naltirish maqsadida kuzatuv olib boriladi.

GFRning ba'zi Federal Yerlarida mavjud bo'lgan yo'nalishli bosqich ("Orientierungstufe") ota-onalarga, o'quvchi va o'qituvchilarga II bosqichdagi maktabga o'tishni hal qiluvchi ishonarli asosni berishga mo'ljallangan. Yo'naltiruvchi bosqich mustaqil o'quv muassasasi yoki II bosqichdagi maktabning 1 qismi sifatida tashkil etilgan. Berlinda bu bosqich boshlang'ich maktabning 5-6-sinf shaklida olib boriladi. GFRda o'rta maktablar 4ta tipga bo'linadi: gimnaziya, real maktablar, asosiy maktablar, umumlashgan maktablar. **ASOSIY MAKTAB** Asosiy yoki to'liq xalq maktabi boshlang'ich maktabni bitirib, real maktab yoki gimnaziya bormagan barcha o'quvchilar uchun majburiydir. Bu maktabda oxirgi majburiy sinf 9-sinf, ba'zi FELarda 10-sinf hisoblanadi. Ko'pchilik FELarda o'quvchilarga qo'shimcha 10-sinfga erkin qatnash imkoni berilgan.



o'quvchilar, ijobiy ta'rif berganda, amaliy qiziqishlari bor bolalar qatnashadi.

Bunga ko'ra asosiy maktablarda e'tibor texnik predmetlarga, chizmalar, qo'l mehnati, uy yuritish, ya'ni, bo'lajak kasbiy faoliyat bilan amaliy bog'lanishga qaratiladi. Bunga o'quvchilarning 8-sinfda o'qiydigan amaliyoti ham kiradi. Hunarmandchilik va sanoat muassasalaridagi "xaqiqiy" ish paytida ular aniq kasbiy talablar bilan tanishadilar. Hozirgi kunda Ta'lim vazirligi asosiy maktabni ishlab qilish zarurati xaqida fikr bildirmoqda. Bunda asosiy maktab o'qituvchilari boshlang'ich maktab o'qituvchilari kabi ixtisoslikka ega bo'lishlari kerak deyiladi.

Real maktablar ikkinchi bosqich Iga qarashli **REAL MAKTABLAR**

bo'lib, odatda 5-10 sinflarni o'z ichiga oladi. 7-sinfni bitirib, real maktabga o'tishni xoxlagan asosiy maktab o'quvchilari uchun real maktabning aloxida 3 sinf varianti mavjud. Real maktab yuqori darajali kengaytirilgan umumiy ta'lim beradi va o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mas'uliyat xissi, insonlarga raxbarlik qilish ko'nikmalariga yuqori talab qo'yadigan kasb egalari bo'lishi uchun kasbiy ta'lim kurslariga tayyorlaydi. Real maktablarda o'qish yuqori darajada olib boriladi, fanlarni tizimlashtirishga katta e'tibor beriladi. Haftasiga darslari soni 30dan 34gacha bo'ladi. O'quvchi 10-sinfni bitirgach, real maktabni bitirganligi haqida attestat oladi,

bu kasbiy ta'limning qator maktablariga, shuningdek, gimnaziyaning 3ta yuqori sinfi bilan teng tipdagi maktablarga yo'l ochadi.

GIMNAZIYA Gimnaziyalar umumta'lim o'quv muassasalari hisoblanadi. Unda o'qish 5-13-sinf gacha 9 yil davom etadi. 11-13gacha o'qiydiganlar gimnaziyaning yuqori bosqichi deb ataladi. Imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan gimnaziya bitiruvchisi oliy o'quv yurtiga kirish huquqini beruvchi Yetuklik attestati oladi.

Fan gimnaziyalariga real maktabni bitirganlik haqidagi attestat bo'lsagina qabul qilinadi. Bu gimnaziyalarda ta'lim davomiyligi 3yil. Bitiruvchilar fan Yetuklik attestatini oladilar, bu esa ma'lum doiradagi fanlarni o'rganish uchun oliy o'quv yurtiga kirish xuquqini beradi. Birlashgan maktab 5-10 (7-10) sinflarni o'z **BIRLASHGAN (UMUMIY) MAKTAB** ichiga oladi. U ikkinchi bosqich Iga qarashli. Birlashgan umumiy maktabning maqsadi: barcha ikkinchi bosqich I maktablari fanlari, kurslari, bitiruv attestatiga talablari bilan birlashtirishdir. U o'quv muassasalari va ikkinchi bosqich II kasbiy ta'lim kurslariga o'tuvchi bitiruvchilarni tayyorlaydi. Undan tashqari, aksariyat umumiy maktablarda o'qitish kurslari mavjud, uni muvaffaqiyatli yakunlagan o'quvchi oliy o'quv yurtiga kirish xuquqini oladi. Umumiy maktabning ikkita tipi bor: kooperativ, integratsiyalashgan maktab.

Kooperativ umumiy maktabda asosiy maktab, real maktab va gimnaziyalar birgalikda ishlaydi. Tashkiliy, metodik va didaktik jihatdan ular bir biriga qaram bo'lmagan bo'limlar sifatida faoliyat yuritadi. Bu bo'limlar o'zaro xamkorligining turi va darajasi yosh davrlari guruhlariga bog'liq. Kooperativ umumiy maktab barcha bo'limlar uchun umumiy pedagogik rahbariyatga ega.

Germaniyada

kasbiy va oliy ta'lim tizimi

Germaniya ta'lim tizimida hunar ta'limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab kuchlidir. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning 20% hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat hollarda o'qish muddati 3-3,5 yilni tashkil etadi. O'qish 3 bosqichdan iborat bo'lib, birinchi yil asosiy hunar ta'limi beriladi. Bunga o'qitilayotgan kasbga taalluqli maxsus fanlardan nazariy asoslar berilib, yirik

korsonalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi beriladi. O'quvchining birinchi yildan ikkinchi yilga o'tishida sinov imtihonlari o'tkazilib, o'qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi yanada chuqurlashtirilib boriladi. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi.



Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. O'zo'zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlarining bosqichma-bosqich ishtiroki printsiptiga amal qilinadi.

Uning tarkibiga professoro'qituvchilar, o'quvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi.

Germaniya oliy ta'lim tizimi oliy o'quv yurtlari turlarining ko'pligi bilan farqlanadi. Germaniyada jami 383 oliy o'quv yurti bo'lib, shulardan 103 tasi universitet, 180 tasi amaliy fanlar oliy o'quv yurtlari hisoblanadi. Birinchi oliy ma'lumotni olish yaqin kunlarga ham nemislar uchun ham, chet ellik talabalar uchun ham tekim edi. 2007 yildan beri ba'zi oliy o'quv yurtlari talabalari har semestrga 500 Yevrodan to'lashlari kerakligi belgilandi (maliyatsiyani hisobga olib oshib bormoqda.)

G'arbiy Yevropa Federal Yerlarida muddatidan uzoq o'qiyotgan talabalar o'qish uchun pul to'laydilar. Ta'lim tizimidagi bu islohotlar qonun bo'yicha yo'lga qo'yilgan. Oliy o'quv yurtlarining ko'pchiligi davlat tasarrufida va hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. 383 oliy o'quv yurtlaridan 69 tasi xususiy.

Oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarisiz qabul qilinadi, abituriyent uchun eng muhimi maktab yoki gimnaziyada kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirishdir. Nufuzli

mutaxassisliklarga o'qishga qabul qilishda abituriyent maktab attestatining o'rtacha bali hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Universitetlardagi nufuzli mutaxassisliklarga o'rinni taqsimlash bo'yicha oliy o'quv yurtlari emas, ZVS degan maxsus bo'linma shug'ullanadi. O'rtacha balldan tashqari ZVS ijtimoiy va shaxsiy sabablar, nogironlik, oilaviy ahvoli va boshqalarni ham hisoga oladi. Agar o'rtacha ball Yetarli bo'lmasa, abituriyentni navbatga qo'yadi. Bir necha semestr kutganidan so'ng unga universitetdan o'rin berishadi.

Germaniya doimiy ravishda universitet reytinglarini aniqlab turadi. Bunda o'qitish, pedagog kadrlar darajasi, shuningdek, u yoki bu oliy o'quv yurtlarini bitirib, ishga joylashish kabi shart-sharoitlar hisobga olinadi.

Germaniyada ilmiy-tadqiqotlar universitetlar va ilmiy tashkilotlar hamda korporativ tadqiqot markazlarida olib boriladi. Universitetlardagi ilmiy tadqiqotlar federal byudjet, FE byudjeti tomonidan va tashkilotlar ajratgan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. Germaniyada ilmiy-tadqiqotlar shuningdek, 4ta yirik ilmiy tashkilotlarda olib boriladi. Bular Maks Plank jamiyati, Gelmgolts jamiyati, Fraungofer jamiyati va Leybnits jamiyatlaridir.

GERMANIYADA Germaniyada universitetlar va institutlar; **OLIY TA'LIM** maxsus OO'Yulari; pedagogik va teologik

TIZIMI

OO'Yulari; boshqaruv va san'at oliy maktablari; kasbiy oliy maktablar

(akademiya) mavjud.

Ta'lim bosqichlari: Asosiy ta'lim - 4 yil. (pedagogik ta'lim bundan mustasno - 3 yil). Amaliyot - 18 oy. Imtihon topshirish va diplom olish. Germaniyada nemis va chet ellik talabalar o'rtasida nafaqat universitetlar, balki maxsus oliy o'quv yurtlariga kirishni hohlovchilar ham ko'p. Bu maxsus oliy o'quv yurtlarida 22000 chet ellik talabalar tahsil oladilar.



Maxsus OO'YU (Fachhochschulen)larida o'qish qisqartirilgan va amaliy vazifalarga yo'naltirilgan. Bunday OO'Yularida muhandislik ishi, iqtisodiyot va menedjment, qishloq xo'jaligi, kompyuter mutaxassisligi bo'yicha yuqori bilimlar olish mumkin.

Universitetlardan farqli holda maxsus OO'YU doktorlik darajasini berish huquqiga ega emas. Bu ta'lim muassasasini bitirgach, Diplomgrad (2-bosqich) beriladi va bu akademik daraja hisoblanadi.

Kasbiy akademiyalar (Berufsakademien) ma'lum fanlar bo'yicha III bosqich ta'limini beradi. Bu Yerda ta'lim ishlab chiqarish muassasalarida amaliy tayyorgarlik bilan birga olib boriladi.

JANUBIY KOREYA TA'LIM TIZIMI

Janubiy Koreya ta'lim tizimi yana bitta butunjahon tamoyilini amalga oshiradi: bu ta'lim va fan integratsiyasidir. Dunyo amaliyotida o'quv muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarini o'z ichiga oluvchi akademik konglomeratlar samarali faoliyat olib borishmoqda. Bunday birlashuv ilm va ta'lim integratsiyasining aniq asosi bo'lib xizmat qiladi va mamlakatda yagona ilmiy-texnik va ta'lim siyosatini olib borish imkoniyatini beradi. Oliy o'quv yurtlari

va ilmiy tadqiqot institutlarining qo'shilishi bugungi kunda integratsiyaning eng samarali shakli hisoblanadi.

Lekin bu shundoqligicha nusxa olish shaklida emas, balki yangiliklarni qabul qilish bilan birga ta'lim rivojlanish bosqichidagi eng yaxshi an'analar va qo'lga kiritilgan yutuqlarni saqlab qolishni taqozo etadi²³.

MAKTABGACHA TA'LIM Janubiy Koreyada bolalar bog'chasi

-onalar farzandlarini xususiy umumta'lim turiga kirmaydi. Ota

maktabgacha muassasalarga beradilar. Bu muassasalarda ta'lim koreys tilida, ingliz tilida, ba'zilarida faqat ingliz tilida olib boriladi. Bolalar bog'chasiga 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Ko'pchilik bolalar "maktabgacha" tayyorgarlik olmasliklari, ya'ni xususiy maktabgacha muassasalarga bormasliklari, balki bolalar bog'chasiga shunchaki borishlari mumkin.

BOSHLANG'ICH TA'LIM Janubiy Koreyada bolalar (6 yoshdan oshgan) 7 yoshdan 13 yoshgacha boshlang'ich maktabga boradilar. O'qish muddati 6 yil, majburiy va bepul. Boshlang'ich maktabda quyidagi 9 ta fanlar o'qitiladi:

- Koreys tili;
- Matematika;
- Aniq fanlar;
- Jamiyat haqidagi fanlar;
- CHet tili;
- Tasviriy san'at;
- Musiqa.

Boshlang'ich maktab koreyschasiga "chxodn xakkyo" deb nomlanar va boshlang'ich ta'lim ma'nosini anglatar edi.



1996 yil Janubiy Koreya xukumati bu nomni o'zgartirdi va "gukmin xakkyo" deb nomladi. Bu atama "fuqarolik maktabi" degan ma'noni anglatadi.

Koreyada davlat tasarrufidagi boshlang'ich maktablardan tashqari qator xususiy maktablar ham mavjud. Bu maktablarning o'quv dasturlari davlat maktablari o'quv dasturlariga birmuncha mos keladi, lekin o'qitish yuqori darajada amalga oshiriladi. Masalan, kam sonli o'quvchilarga ko'p o'qituvchilarning jalb etilishi, qo'shimcha fanlarning kiritilishi, umuman ta'limning yuqori standartlarga egaligi va h.k

Janubiy Koreyada Koreys tilida o'rta maktab "chunxakyo" deb maktab tizimi: o'rta va nomlanadi va "o'rta maktab" ma'nosini beradi. **yuqori maktablar**

O'rta maktabda ta'lim majburiy, bepul va 3 yil o'qitiladi. O'rta maktabga 11 yoshdan oshgan, 12 yoshdagilar qabul qilinadi.

Mashg'ulotlar 45 daqiqa davom etadi. Boshlang'ich sinfdagi 9 ta fanga, o'rta maktabda yana 4 ta fan qo'shilib, jami 13 ta fan o'qitiladi. Maktabda chet tillariga e'tibor kuchli. Ko'pchilik ingliz tilida bemalol gaplasha oladi.



²³ Comparative Education Review. By the Comparative and International Education Society. 1994.

O'rta maktabda bir kunda 6 ta fan o'qitiladi, shuningdek, alohida maxsus 7-dars ham bor. O'quv dasturining negizini quyidagi fanlar tashkil etadi:

- Matematika;
- Koreys va ingliz tili;
- Qator aniq fanlar;


"Qo'shimcha" fanlar quyidagilardan iborat:

- San'at sohalar;
- Jismoniy tarbiya;
- Tarix;
- Xancha (xitoy peroglifi);
- Etika;
- Uy iqtisodini yuritish;
- Kompyuter savodxonligi.

CHet tilini o'qitishga haftasiga 4-5 soat ajratilgan. O'qish o'rta maktabda bir yilda 1222 soatni tashkil etadi. Koreyalik o'quvchilar ingliz tilidan tashqari klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rganadilar. Undan tashqari juda irodali o'quvchilar kurash turlari va musiqa maktablariga qatnashadilar. O'quvchilar shu tariqa darsdan keyin uylariga juda kech qaytadilar.

Koreyschasiga "kodnxakkyo" deb nomlanadi.

Yuqori maktab



Koreyalik bolalar yuqori maktabga o'rta maktabdan keyin 17 yoshdan 1kursga qabul qilinadi va 19 yoshgacha tahsil oladi. Yuqori maktablar bir necha turlarga ajratiladi:

Davlat yuqori maktablari:

Koreya Ta'lim va texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi;

Umumiy yuqori maktablar: har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan

boshqariladi;

Xususiy yuqori maktablar.

Shuningdek, yuqori maktablar o'qitish fanlariga ko'ra ham bir qancha turlarga bo'linadi:

- Ixtisoslashtirilgan maktablar (qishloq xo'jaligi, sanoat, dengiz xo'jaligi, axborot);
- Umumiy maktablar;
- Maxsus maktablar (litsey shaklidagi maktab);
- Texnika maktablari;
- CHet tili maktablari; - Jismoniy tarbiya maktablari; - San'at maktablari va h.

Janubiy Koreya Respublikasida ta'lim vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq xo'jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo'ladi.

Kollejda tahsil olishni istamagan o'quvchilar kasbiy bilim yurtlariga kirib o'qishlari mumkin. Bu bilim yurtlari texnologiya, agrikultura yoki moliya yo'nalishlariga ixtisoslashgan. Yuqori maktablarning jadvali haqida gapiriladigan bo'lsa, har bir o'quvchi uchun kun yarmida qaytib kelish odatdagi holatga aylangan.

Rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun maxsus maktablar mavjud. Bu maktablarning aksariyati xususiy yoki diniy tashkilotlarning xayriya mablag'lari hisobiga qurilgan.

Maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor berildi. Koreyadagi barcha talabalarning 6.5% bo'lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta o'qituvchilar tayyorlaydigan kollejlar mavjud har bir provintsiya (viloyat) o'z kollejiga ega. Yuqori maktab bitiruvchilari "susen" deb nomlanuvchi standart test topshiradilar. Maktab o'quv dasturlari kirish testlari – imtihonlari

mazmunini qamrab olgan. Susen 3 ta asosiy sektsiya / fanlardan iborat: koreys tili, matematika va ingliz tili. Undan tashqari tabiiy va ijtimoiy fanlardan tanlov asosida qator fanlar kiritiladi. Bunday test 1 yilda 1 marta topshiriladi, u intensiv tayyorgarlikni talab etadi. Bu testga bo'lajak OO'YU talabalar bog'cha yoshidan tayyorlanishni boshlashadi. Testni topshirolmagan va kollejga kirish 1 yilga surilgan o'quvchilarni "chesusenlar" deb atashadi. Janubiy Koreyada oliy ma'lumotga ega bo'lish **JANUBIY KOREYADA**

KASB-HUNAR har bir koreys fuqarosining keyingi mavqe'i **TA'LIM** VA **OLIV** muvaffaqiyati uchun juda katta ahamiyat kasb

TA'LIM TIZIMI etadi. Shuning uchun ham bu martabali ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga bo'lgan ehtiyoj ham katta. Janubiy Koreyada e'tibor ko'proq matematika, koreys tili va ingliz tillariga, aniq fanlarga va jamiyat bilan bog'liq fanlarga qaratiladi.

Janubiy Koreya aholi o'rtasida talabalar soniga ko'ra dunyoda birinchi o'rinlarda turadi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga ko'ra barcha OO'YU. davlat tasarrufidagi va xususiy ta'lim vazirligi va mehnat resurslarini rivojlantirish xizmati tomonidan boshqariladi. Boshqa masalalar bo'yicha universitetlar Koreya Universitet ta'limi kengashi tamoyillariga tayanadi.



Students study at a hagwon, or private cram school, in this file photo. The drive for better grades pushing some students and their parents to illegal tutoring. Effective though it may be, it's still

Janubiy Koreyada quyidagi ta'lim muassasalari turlari mavjud:

- Kollej va universitetlar (xususiy va milliy, davlat tasarrufida);
- Industrial universitetlar;

- Pedagogika institutlari;

BAKALAVRIAT. O'qish muddati 4 yil. Talabalar 140-150 kredit soat atrofida tahsil oladilar. Tibbiyot sohasida o'qish 6 yil davom etadi va 180 kredit soat o'qishadi. O'qish tugagach, bakalavr darajasini olganligi haqidagi diplom beriladi. Tipik yirik koreys universitetlari tarkibida 10 tadan 20 tagacha fakltetlar bor. Fakultetlar amerikacha termin bilan "kollixlar", ya'ni koreyscha "texak" deb ataladi. Koreyada o'quv jarayoniga axbort texnologiyalarini joriy qilishga alohida e'tibor beriladi. Natijada Janubiy Koreya dunyoda o'z maktab va ta'lim muassasalarini kompyuter va internet bilan to'liq ta'minlagan ikkinchi davlatga aylandi.

MAGISTRATURA. O'qish muddati 2-3 yil. O'qish yakunida talabalar dissertatsiya yoqlaydilar. Tibbiyot sohasidagi talabalar Tibbiyot maktabining barcha talablarini bajarib, milliy imtihon topshiradilar. O'qish yakunida magistrlik darajasi beriladi.

DOKTORANTURA. O'qish muddati 3-4 yil. O'qish yakunida doktorlik dissertatsiyasi himoya qilinadi, og'zaki yoki sohaga mos imtihon topshiriladi.

5-chizma.

No	Bosqichlar	O'qish davomiyligi	Majburiyligi
1	Boshlang'ich maktab	6 yil	Ha
2	O'rta maktab	3 yil	Ha
3	Yuqori maktab	3 yil	Yo'q
4	Kasbiy ta'lim(kollej)	2 yil	Yo'q
5	Oliy ta'lim(universitet)	4 yil	Yo'q

4. Belgiya ta'lim tizimi²⁴

No	Ta'lim bosqichlari	Yosh
1	Boshlang'ich maktab	6-12
2	O'rta maktab	12-16
3	O'rta kasbiy maktab	16-18
4	Oliy maktab	18-23

Maktabgacha ta'lim.

Belgiyada maktabgacha ta'lim 2,5 yoshdan boshlanadi. Ushbu belgilangan yoshga Yetganda bolalarni maktabgacha berishadi, shu sababli guruhdagi bolalar soni yil davomida o'zgarib boradi. Maktabgacha guruhlarining asosiy maqsadi: bolalarning bilish, bilim orttirish (kognitiv), kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi.



Maktabgacha ta'lim majburiy ta'lim dasturiga kiritilmagan bo'lsada, Belgiyada tahminan 90%gacha bo'lgan bolalar unda tahsil olishadi. Ko'p hollarda maktabgacha ta'lim muassasalar boshlang'ich maktablarga uyg'unlashgan bo'ladi.

Bolalar 6 yoshga Yetganda boshlang'ich maktabning birinchi sinfiga o'qishga kiradi.

²⁴ National Student Fee and Support Systems in European Higher Education.- 9 p

MAKTAB. Maktab ta'limi davri 2 ta – boshlang'ich va o'rta maktab bosqichiga bo'linadi. Boshlang'ich maktab, o'z navbatida, 3 ta 2 ta sinfli bosqichdan iborat. Bu davrda bolalar arifmetika, o'qish, yozish, musiqa, tarix va ba'zi boshqa fanlardan ta'lim olishadi. Darslar 8.30 da boshlanib, 15.30 gacha davom etadi. Soat 12.00 dan 13.00 gacha tushlik uchun tanaffus beriladi. Chorshanba kuni tushlikdan so'ng, shanba va yakshanba kunlari dam olish kunlari hisoblanadi.

Bryusseldagi flamand maktab dasturiga birinchi yoki ikkinchi sinfdan boshlab, frantsuz tilini o'qitish kiritilgan.

Qolgan flamand maktablarining ko'p qismida bu fan boshlang'ich maktabning 3bosqichida o'rgatiladi.

Mamlakatning frantsuz tilida so'zlashuvchi qismida o'quvchining boshiga ko'ra ingliz yoki niderland tillari ham o'rgatiladi.



German tilida so'zlashuvchi qismida frantsuz tili majburiy tarzda o'qitiladi. Shuningdek, Belgiyada, belgilangan ijtimoiy guruh (dengizchi va diplomatlar bolalari)ga yo'naltirilgan qator xususiy maktablar ham faoliyat ko'rsatadi.

O'quvchilar boshlang'ich maktabni tugatib, xuddi shunday 3 ta 2 yillik bosqichdan iborat o'rta maktabga o'tadilar. Bu bosqichda o'quvchilar fanlarni ma'lum guruhlar orasidan tanlashlari shart bo'ladi va bu tanlov ma'lum darajada ularning dars jadvalini aniqlab berishga asos bo'ladi. Dars jadvalidan bu tanlangan fanlardan tashqari xamma uchun majburiy fanlar ham joy olgan. Masalan, davlat tili va jismoniy tarbiya fanlari va hokazo.

Belgiya hududida 4 tipdagi o'rta maktablar faoliyat yuritadi:

Umumiy ta'lim beruvchi o'rta maktab (Algemeen Secundair Onderwijs, (ASO)). Mazkur tipdagi muassasalar o'quv dasturida maktab bitiruvchisi 6 yil to'liq ta'lim olib, o'qishni oliy o'quv yurtida davom ettirishi ko'zda tutilgan.

Texnik o'rta maktablar (Technisch Secundair Onderwijs, (TSO)) ikkita: TTK va STK kabi "tipcha"ga bo'linadi. I "tipcha"dagi maktablarda ta'lim texnik jihat tomoniga yo'naltirilgan, II "tipcha"ga - amaliy muassasalarga ixtisoslashgan.

Kashiy-texnik o'quv yurtlari (Beroyeps secundair ondwYerwijs (VSO)) duradgor, zargar, g'isht teruvchi (quruvchi) usta kabi o'ziga xos mutaxassisliklar boyicha ta'lim taklif etishadi. BSO — faqat belgiya o'rta ta'limida mavjud bo'lgan ta'lim muassasasi tipidir, bundan keyin oliy ta'lim olish imkoniyati ko'zda tutilmagan.

O'rta badiiy ta'lim muassasalari (Kunst secundair onderwijs (KSO)). Ushbu o'quv yurtlar san'at sohasi boyicha oliy ma'lumotga ega bo'lish uchun universitet yoki kollejga o'qishga kirish uchun talabalarni tayyorlaydilar. Tanlagan yo'nalishiga qarab, akterlik mahorati, xoreografiya, musiqa yoki tasviriy san'at ustuvor bo'lishi mumkin.

Belgiyada oliy ta'lim: universitetlar va oliy maktablar.

Belgiya oliy ta'limi o'zining ko'hna an'analariga ega. O'qitish jarayoni va zamonaviy ilm-fanni rivojlantirishning muhim yo'nalishlari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni o'tkazish o'rtasidagi bog'liqlik Belgiya ta'lim tizimi uchun an'anaviy hisoblanadi.

Belgiya ta'limiga frantsuz, flamand va nemis hamjamiyatlari javobgar. 6 yoshdan 16 yoshgacha va kechki maktablarda 18 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar uchun ta'lim majburiy va bepuldir.

UNIVERSITET TIPIDAGI O'QUV YURLAR VA OLIY MAKTABLAR



Gent davlat, Bryussel' erkin

(frantsuz tilida va alohida flamand), Luven katolik (frantsuz tilida va alohida flamand).

1970 yil 7 iyuldagi qonunga muvofiq O'Yular universitet tipidagi o'quv yurtlar va Oliy maktablarga bo'linadi. Aslini olganda 7 ta Belgiya universiteti faoliyat yuritadi: L'ej davlat, Monse-Yenodagi Universitet,

Ular qatorida bir nechta xorijiy universitet bo'limlari (Bryussel' va Antverpenda), hamda universitetga tenglashtirilgan qator Belgiya O'YU (odatda ular universitet fakul'teti, markaz, birlashma yoki jamg'arma nomlariga ega) faoliyat yuritadi.

Kurs	Davomiyligi	Daraja
(Tayanch)-Bazaviy	2 yil	kandidat (ta'limning boshqa tizimida bakalavr diplomiga mos keladi)
Asosiy	3 yil	litsenziat (ta'limning boshqa tizimida magistr diplomiga mos keladi)
Qo'shimcha	2 yil	doktor (mutaxassis)
Oliy	2 yil	oliy ta'lim agrejesi

"kandidat" darajasi - 2 yoki 3 yillik tayanch ta'lim olganidan keyin beriladi. Bu 1-tsikl hisoblanadi (keyin esa ta'limning 2-tsikli, ya'ni ixtisos (soha) boyicha tayyorlash boshlanadi;

"litsenziat" - bakalavr darajasiga mos keladi, mutaxassisligi boyicha 2 yoki 3 yillik qo'shimcha ta'lim olishi va ilmiy ish yozganidan keyin beriladi.

Ba'zi fanlar boyicha ko'p muddatli o'qishdan keyingina ushbu darajaga erishish mumkin: muxandislik, farmatsevt, huquq sohalari bo'yicha mutaxassisliklari uchun - 3 yil yoki meditsina, jarrohlik va doyalik (akusherlik) ixtisosligi bo'yicha doktor unvoniga ega bo'lishi uchun 4 yil o'qishlari shart.

"doktor" - magistr darajasiga to'g'ri keladi, mazkur darajaga "litsenziat" darajasini olgandan keyingina kamida yana 1 yil tahsil olib, dissertatsiyani yozib, albatta uni yoqlash talab etiladi.

"oliy ta'lim agreeje"si - ushbu iyerarxiya (ketma-ketlik)ning oliy darajasi hisoblanadi va u doktorlik darajasini olib, 2 yil muddat o'tishidan keyingina berilishi mumkin.

FRANSIYA TA'LIM TIZIMI²⁵

Frantsiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu Yerdan:

1. **Davlat maktablari.**
2. **Xususiy maktablar.**
3. **Oraliq maktablar mavjud.**

Frantsiya boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish hisoblash malakasini berishdir. O'quv

masg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi.

Maktabda ovqatlanish pullik lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlang'ich sinflarda o'qish uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi;
2. Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
3. Chuqurlashtirilgan bosqich.

O'quv dasturining mazmunini bevosita o'qituvchining o'zi belgilaydi. Bir so'z bilan aytganda o'qituvchi bolalar bilimiga to'la mas'ul ekan uning uslub tanlashiga mustaqil harakat qilishiga ham to'la erkinliklar beriladi.

TA'LIM TIZIMLARI. Frantsiya ta'lim tizimining dastlabki bosqichini maktabgacha tarbiya tashkil etadi. Bu bosqichni "Onalar maktabi" deb ham yuritiladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarning maktabdagi sharoitini o'z sharoiti bilan yaqinlashtirish, ularga oiladagidek iliq munosabatni shakllantirishdan iborat. Ularni mustaqil holda hamm, maktablarning boshlang'ich sinflari bazasida ham tashkil etilgan. Frantsiya ta'lim tizimida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiya bosqichida tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan:

Kichik guruh 2 yoshdan 4 yoshgacha;

O'rta guruh 4 yoshdan 5 yoshgacha;

Katta guruh 5 yoshdan 6 yoshgacha.

5-6 yoshlilar maktabga tayyorlov guruhi bo'lib, ularga Frantsiyada 100 foiz shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

BOSHLANG'ICH TA'LIM.

²⁵ National Student Fee and Support Systems in European Higher Education.-20 p

Frantsiyada boshlang'ich maktablarga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ish ta'lim barcha uchun majburiy va bepul.



Boshlang'ish ta'limga qo'yilgan asosiy talab o'quvchilarga ifodali o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdan iboratdir.

Frantsiyada ta'lim olayotgan chet el fuqaroligiga mansub kishilarning farzandlariga ularning vatani, xalqi, tarixi,

tili va adabiyotini o'rganish uchun fakultativ kurslar tashkil etish ham ko'zda tutilgan.

Boshlang'ich sinflarda o'qish 5 yil bo'lib, o'qish 3 bosqichga bo'linadi:

- Tayyorlov bosqich - 1 yil. Bunda bolalar hisoblashga, o'qish va yozishga, kuylashga, o'ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga, jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishga maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga, mehnat qilishga o'rgatiladilar. O'qish mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha, hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Ovqat pullik, lekin juda arzonlashtirilgan.

- Ikkinchi bosqich -elementar kurs bo'lib, bu 2 yil davom etadi.

Tayyorlovdagi bilimlar yanada takomillashtiriladi. Tayyorlov bo'limida bir o'qituvchi ishlasa, elementar bosqichda 2 o'qituvchi (har biri bir yildan) ishlaydi.


- Uchinchi bosqich- chuqurlashtirilgan bosqich. Bunda o'quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi. Dasturlarda o'quv predmetlarining

barchasiga uch bosqich bo'yicha aniq, alohida-alohida talablar qo'yiladi.

O'RTA TA'LIM.

O'quvchilar 11 yoshdan o'rta maktabga o'tadilar. O'rta ta'lim kollejlari va litseylarda amalga oshiriladi. O'rta ta'lim 2 bosqichda beriladi. Birinchi bosqich (11 yoshdan 15 yoshgacha) 4 yil bo'lib, eng kichik sinf 6-sinf, 5,4- o'rta, 3-sinf eng katta sinf hisoblanadi. Birinchi bosqichda frantsuz tili va adabiyoti, chet tili (ingliz, nemis, ispan, italyan tillari), tarix, geografiya, matematika, tabiiy fanlar o'qitiladi.

Birinchi bosqich yakunlangach, o'quvchilar kasbiy yo'nalishlari bo'yicha guvohnoma oladilar. Ikkinchi bosqichda o'quvchilar 15-18 yoshda ta'lim oladilar. Bunda o'qish 3 yil davom etib, 2-sinf kichik, 1-sinf o'rta va yakunlovchi sinflarga bo'linadi.



6-5 sinflar umumiy o'rta ta'lim beradi, 4-3 sinflarda o'quvchilarning qobiliyat va moyilligiga qarab bilim beriladi.

Guvohnoma olganlaridan so'ng oliy pedagogika instituti, politexnika instituti, oliy ma'muriy maktablarga imtixon bilan qolgan oliy o'quv yurtlriga imtixonsiz qabul qilinadilar.

OLIV TA'LIM.

Frantsiyada quyidagi bilim maskanlarida oliy ta'lim beriladi

Universitetlar

oliy texnologiya maktablari

- oliy muhandislik maktablari
- oliy arxitektura maktablari
- oliy tijorat maktablari
- siyosiy fanlar oliy maktabi
- oliy pedagogik va filologiya bilimgozlari
- oliy tibbiyot o'quv muassasalari
- oliy badiiy maktablar
- malaka oshirish oliygozlari.

Oliy ta'limda uch tsiklda bilim beriladi. Birinshi tsikl umumiy, yoki texnik, ilmiy sohada oliy ma'lumot olish bilan yakunlanib, o'qish 2 yil davom etadi. Ikkinchi tsiklda o'qish 1 yil davom etib, talabalar uni metrizz, magistr darajalari bilan yakunlaydilar. Uchinchi tsikl 1-2 yil davom etib, bunda:

- biron-bir predmetni chuqurlashtirib o'rganilganligi uchun diplom (bir yil);
- ixtisoslashtirilgan oliy ma'lumot to'g'risida diplom (bir yil);
- uchinchi tsikl doktorlik dissertatsiyasi (1,2 yil);
- davlat doktorlik dissertatsiyasi - biron-bir sohani mukammal o'rganib, dissertatsiya yozish kabi hujjatlar olish mumkin.

Sirtqi ta'lim. Frnatsiyada sirtqi ta'lim 1 mln kishini qamrab olishi mumkin. Sirtqi ta'lim xususiy yoki davlat ta'lim shoxobchalarida amalga oshirilishi mumkin. Mamlakatda milliy sirtqi ta'lim markazi faoliyat ko'rsatmoqda, u 500 turdagi o'rta, oliy professional ma'lumot berishni tavsiya eta oladi. Odatda ta'limning bu turi oilaviy sharoit, iqtisodiy sharoitlar tufayli maktabda o'qishni davom ettirish imkoniyati bo'lmagan kishilar uchun mo'ljallangan. Sirtqi ta'lim katta yoshlilar uzluksiz ta'limining muhim shoxchasi bo'lib qolgan.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Didaktika tushunchasi. A.Retke va YA.A.Komenskiyning ta'limga qo'shgan hissasi.
2. Ta'lim strategiyalari. Blum taksanomiyasi.
3. Hamkorlikda o'qitish. Konstruktivizm.
4. Ta'lim mazmuni, tashkiliy shakllari, metod va vositalari.
5. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosliklari.
6. Yaponiya ta'lim tizimi.
7. Janubiy Koriya ta'lim tizimi.
8. Frantsiya ta'lim tizimi.

4.1. Pedagog shaxsi. Pedagogga qo'yiladigan zamonaviy talablar.

4.2. Sifatli o'qituvchi tushunchasi. Robert Glennning

"O'qituvchilar nima qilishi kerak?" nomli asari.

4.3. Zamonaviy pedagog modeli.

4.1. Pedagog shaxsi. Pedagogga qo'yiladigan zamonaviy talablar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi pedagogga qo'yiladigan zamon talablari majmuini belgilaydi. Birbiriga bog'liq bo'lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq o'qituvchiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat: ta'lim berish mahorati; tarbiyalay olish mahorati; o'quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiy fazilatlar; ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati va h.k..



Umumlashtirilgan

modelning doirasidagi malakaviy zamon talablari pedagog «qiyofa»sini ifodalaydi.

Kadrlarning yangi avlodini tayyorlash muammosining samarali

Yechimi, birinchi navbatda, hozirgi kun talablariga javob bera oladigan psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, ekologik madaniyat, huquqshunoslik va shunga o'xshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga ega bo'lgan har

tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlarning tayyorlanishi bilan bog'liqdir.

Olib borilgan kuzatishlar va AQSH, Germaniya, Yaponiya, Frantsiya va boshqa sanoati hamda intellektual bilimlari rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, asosan, quyidagilarga bog'liq bo'lar ekan:

- ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro samarali aloqadorligiga;
- ta'lim muassasalari va professional ta'lim dasturlari turlarining (tiplarining) xilma-xilligi, ularda fan va texnikaning eng oxirgi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarning eng yuqori andozalari va ko'rinishlarigay darajada aks ettirilganligiga;

- professional ta'lim tizimini ustuvor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantirishga;

- ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash va ularning moddiy-texnik asosini yaratish hamda ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini mustahkamlashga;

- professional ta'lim tizimiga eng yuqori malakali o'qituvchilarni va mutaxassislarni jalb etishga;

- o'quv jarayonini informatizatsiyalash va kompyuterlashtirishga;

- kadrlarni tayyorlashning sifat bahosini va ob'ektiv nazorat tizimini qo'llashga;

- shaxsning rivojlanishi, o'lchovi, sifat va hulqini, qobiliyat va intellektini baholash hamda kasbiy mahorati muammolariga bag'ishlangan psixologik-pedagogik izlanishlarni bajarishga;

- o'qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag'batlantirish va ularni ijtimoiy himoyalab turishga.

Bugungi kun mutaxassisi har tomonlama rivojlangan yuqori darajadagi intellektga ega bo'lgan, fan asoslarini chuqur o'rgangan bilimdon, zukko, dono, fidoiy, ma'rifatli va ma'naviyatli inson bo'lishi kerak. U o'z mutaxassisligi, masalan, iqtisodchilikdan tashqari, xorijiy tillardan birini bilishi hamda AKT dan foydalana olishi shart.

Zamonaviy pedagog yuqori madaniyatli, xalqimiz tarixini chuqur biladigan va uning kelajagi uchun jon kuydiradigan insonparvar va oliyjanob kishi bo'lishi kerak.

Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko'ngildagidek o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g'oyat murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini ta'kidlash lozim.



Shunday ekan, o'qituvchilik-katta san'atdir. Bu san'atga u yoki bu pedagog osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. Shuning uchun, o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlod uchun chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan-naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun standart, ya'ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi.



**Islom Abdug'aniyevich
Karimov**
(1938-2016)
**O'zbekiston Respublikasining
birinchi Prezidenti**
**"Agarki, dunyo imoratlari
ichida eng ulug'i maktab**

***bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi-o'qituvchilik va murabbiylikdir"*²⁶**

G'azal mulkining sultoni, ikki daryo bo'yidagi zahmatkash xalqini yakqalam qilgan Alisher Navoiy ranj ila bir harf o'rgatgan ustozlar xizmatini yuz ganj ila ado etib bo'lmasligini yozgan va hayotda o'z ustozini mavlono Lutfiyga bo'lgan ehtiromida uning amaliy isbotini namoyon etgan. Shu boisdan, azal-azaldan bu kasb juda e'zozli hisoblangan. Ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi muvaffaqiyat ularning faol ishtirokchisi-o'qituvchi shaxsiga ko'p jihatdan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida ham o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikri ibratlidir: *"Tarbiyachining o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. ...O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab qilamiz, ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak.*

*...maktablardagi jarayonlarda o'qituvchi xukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Printsip ham tayyor: "Mening aytganim aytgan, deganim degan"*²⁷.

O'qituvchi va o'quvchi munosabatlaridagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz"²⁸.

²⁶ И.Каримов. Баркамол авлуд Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори" Т. Ўзбекистон – 1999. 25-бет.

²⁷ И.Каримов. Баркамол авлуд Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори" Т. Ўзбекистон – 1999. 256-бет.

²⁸ И.Каримов. Баркамол авлуд Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори" Т. Ўзбекистон – 1999. 25-бет.



Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi lozim?

O'qituvchi maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassislik ma'lumoti va metodik tayyorgarlikka, shuningdek, yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxs sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunining 5-moddasi 7-bandiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan ma'n etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida faoliyat olib borishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Zamonaviy o'qituvchi shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak:

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab Yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berib borishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchi ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimiga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va boshqalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i darkor.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi, kommunikativlik layoqatiga ega bo'lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo'loyoq va gavda harakatlari (mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.



8. O'qituvchi yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning nutqi bir qator sifat va xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

9. O'qituvchi kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda va bejirim kiyinish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning diqqatini ko'p jalb etuvchi turli xil bezaklar (qimmatbaho taqinchoqlar va yorqin rangli pardoz-andoz vositalari) dan ortiqcha va o'rinsiz foydalanmaslik, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishga odatlanish kabilar) ega bo'lishi lozim.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

O'qituvchi shaxsining mazkur talablarni o'zida aks ettira olgan ichki va tashqi qiyofasi uning o'quvchilar va hamkasblari hamda otalari o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

4.2. Sifatli o'qituvchi tushunchasi. Robert Glennning "O'qituvchilar nima qilishi kerak?" nomli asari

O'qituvchilarning pedagogik faoliyati samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish

ehtimoli bo'lgan har xil ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borishlari orqali amalga oshiriladi:

1. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar.

2. Bo'lajak o'qituvchilar milliy urf-odat va an'analarimizda va O'rta Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o'zlarida ehtiyoj va havasni rivojlantirib boradilar.

3. Egallangan pedagogik-psixologik va metodik bilimlar, ko'nikma va malakalar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida har bir bo'lajak o'qituvchi o'zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi.

4. O'quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so'nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o'zlashtiradilar.

5. O'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari uchun shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar.

6. Tarbiyachi mahoratining mohiyati, funksiyasi, tuzilishi to'g'risida o'qituvchilar uzluksiz ma'lumotlarni o'rganib boradilar.

7. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalanish asosida o'z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.

Nimani tanlashdan qat'iy nazar pedagogik andoza yoki o'qituvchining strategiyasini, hosil qiladigan tadqiqot namoyish qiladi. O'qituvchini sifatleri va mahorati - talabalar o'rganishining tayanch dominant.

"O'qituvchining sifatleri - yagona va eng katta omil talabalarining yutuqlarini tushuntirishda, auditoriya bog'lagan muammolardan ham ortiqroq, shu kabi resurslar, o'quv rejani boshqaradigan printsiplar va baholash usullari, yoki keng maktab

ta'lim atrof-muhiti, shu kabi maktab madaniyati va tashkil etilishida" (Lovat, ACDE, p2)²⁹.



Robert E. Glenn (1933-2015)

"O'qituvchilar nima qilish kerak"
asari muallifi

Mahoratli o'qituvchi bo'lishi uchun Robert E. Glenn o'zining "O'qituvchilar nima qilish kerak"⁴¹ (2001) asarida o'qituvchilarni o'ziga xos xususiyatlarini namoyish qilishga da'vat qiladi:

• **Ilovalar ishtiyoqi.** Ta'lim qiziqarli bo'lishi ko'rsating, va o'qishga bu g'ayrat talabalarining istaklariga ta'sir etadi.

• **O'zining mazmunini bilish.** O'z sohasini sifatleri va mazmunidan orqada qolmang. Bu faoliyatingizning birinchi yoki uchtinchi yildan qat'iy nazar o'z sohada o'zgaruvchan innovatsiyalardan orqada qolmang.

• **Tashkilotchi bo'lish**⁴². Samarali tashkil etish sizga talabalar bilan o'rganish uchun ko'proq vaqt ajratishga imkoniyat beradi. Kundalik ishlar bilan ishlash usullar toping: talabalar ishlarini tahlili, materiallarni tarqatish.

• **Faol o'qitish.** Samarali o'qituvchilar doimo jalb qilingan. Ular harakatda. Ular bekor turmaydilar, har doim ish bilan bandlar. Ular talabalar va boshqa shtat bilan faol bog'langanlar.

• **Yaxshi munosabatni ko'rsatish.** Voltaire dedi: "Eng jasur qaror, har qaysi odam har kuni qabul qiladigan bu yaxshi kayfiyatda bo'lish hisoblanadi." Bolalar yomon kayfiyatda bo'ladigan

²⁹ Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-10 p ⁴¹ Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-10 p ⁴² Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-6 p.

o'qituvchilarda muhtoj emaslar. Ular ijobiy munosabatlarda bo'lgan modellarda muhtoj. Boshqalarga nima gapirganiz va o'z tovushingizni eshiting. Siz emotsiya, g'amxurik va ehtiromni ko'rsatishingiz shart.

- **Auditoriyaning muvaffaqiyatli boshqarishni ko'rsatish.** ... birinchi kundan boshlab! Aqlli ko'rinish va intizom talabalar uchun muhim deb hisoblanadilar.

- **Temp qo'llanmasi.** O'rganilgan miqdor o'qish imkoniyatlari bilan bog'liq.

- **Tajribali mutaxassislar malakalarini qo'llab-quvvatlash.** O'qituvchilar boshqalar bilan yaxshi ishlashlari shart. Agar odamlarga sizning o'qituvchi sifatida axloqingiz yoqmasa, ular sizning atrofingizda bo'lishni istamaydi. Ta'lim – odamlarning biznesi.

- **Aniq muloqot qilish.** Samarali o'qituvchilar ma'lumotni aniq berishadi. Yangi ma'lumotlarni taqdimotida o'qituvchilar aniq ko'rsatmalar berishi lozim. Bu jarayon tushuntirishni, tahlil qilish xulosa chiqarish va muhokama qilish kabilarni o'z ichiga oladi.

- **Samarali so'rov o'tkazish.** So'rash – kuchli o'rgatuvchi asbob, u orqali produktiv o'ylash bo'lishi mumkin.

- **Qo'llanmalarni farqlash.** O'qitishni samarasini beradigan eng katta sinovlardan biri – talabalar o'rganilayotgan usullarni o'zgartirishdir. O'qituvchilar eshitirish, vizual ko'rsatish va amaliy usullarni aralashtirishlari lozim. Ayrim darslar uchun, talabalarining xususiy imkoniyatlari hamda qobiliyatlarini inobatga olish zarur.

- **Auditoriyaning muvaffaqiyati.** Muvaffaqiyatni me'yori muhim. Qaysi talaba uchun ish hajmi xaddan tashqari murakkab bo'lsa, uning ahloq va harakatlar faoliyatini tartibsiz holga keltirishi mumkin,  **Yuqori natijani kutish**³⁰. Yaxshi ish uchun yuqori natijalar e'lon qilinishi kerak. Samarali o'qituvchilar nafaqat buni qabul qiladilar – ular buni talab qilishi shart. Talabalar rag'batlantiradigan o'qituvchilarni hurmat qiladilar.

³⁰ Lea Chapuis. Pedagog. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-8 p.

- **Yoqimli atmosferani yaratish.** Qarong'u, kulrang va g'amgin auditoriya o'qishning muvaffaqiyat foizini kamaytiradi. Quvnoq va ochiq auditoriya o'qishni rag'batlantiradi.

- **Egiluvchan bo'lish.** Ta'lim egiluvchanlikni talab qiladi. Siz auditoriyaga moslasha olasizmi. Natijani kafotlatlay olasizmi? Bu borada natijani kafotlatlaydigan vaqtni toping!

Yuqorida ko'rsatilgan umumiy ta'lim jihatlari – o'qituvchilarni talabalar bilan har kunlik amaliy munosabatlarda ushlab turadigan narsalardir. Biroq, yaxshi o'qituvchilar qadrlaydilar, nima uchun tadqiqotlardagi qiymat va boshqarish ta'limning hamma sohalarida istiqbollarni kengaytiradi va ta'lim amaliyotini oshiradi.

Ular ta'lim haqidagi bilim va g'oyalarni talabalarining foydasiga almashtirishlari mumkin. Shunday qilib, ular kelishuvlarning ishonchli foydalanuvchilari bo'lib qoladi va bu pedagogikaning hamma jihatlari bilan bog'langan. Ayrim sezilgan va hosil bo'lgan jargonga qaramasdan, ko'pchilik o'qituvchilar "o'qituvchining gap" yoki "kasbiy til" to'g'risida gapirishadi. Usha xaqidagi muxokamalar ta'limga tegishli bo'lgan mavzularni va talabalar harakatlar tahili ularni pastga tushurmeydi. Shunday tegib turadigan nuqtalar borki, ta'lim darajalarining hamma sohalarida hamkasblar bilan gapirganda, kollej, universitet, o'rta maktab yoki maktabgacha ta'limda muammolar o'xshash. Bu kasbga oid qonunlar majmuini qabul qilish shart, modoimki boshqa soha qonunchilik, meditsina va b. mutaxassislarning o'rinishlariga qarab.

Bu faqat egiluvchan o'qituvchilarning strategiyalariga repertuarini kengaytirish mumkin, chunki har qanday o'qituvchi o'zining pedagogik instrumentariyni boyitishga harakat qiladi.



Umid qilamizki, ushbu modulda umumiy chizilgan bu tuzilmalar va strategiyalar umumiy repertuarni kengaytiradi va tushuntiradi – shunday qilib modulga keltirilgan ICT strategiyalar ham mavjud. Ushbu strategiyalar keyinchalik o'qituvchilar repertuarini kengaytirishi kerak. Shunday qilib uzun hayot davomida o'qituvchilar o'z talabalari bilan birgalikda bilimlarni oshiradilar, bevosita hayotni loyihalashtiradilar.

4.3. Zamonaviy pedagog modeli

Hozirgi zamon o'qituvchisi o'z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni hamda turli fan yo'nalishlari bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarini egallagan, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. Ushbu nuqtai nazardan hozirgi kunda quyidagi burch va mas'uliyatlar o'qituvchilardan talab qilinadi:

1. O'qituvchi, eng avvalo, mas'uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisidir.
2. O'qituvchi tabiatan o'quvchilarni seva olishi, o'z mehrini, histuyg'ularini har lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak.
3. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab Yetishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi lozim.
4. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo'lib borishi talab etiladi.
5. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi.
6. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak.

7. O'qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

8. O'qituvchi ijodkor, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir.

9. O'qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o'zlashtirib borishi shart.

10. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi kerak: turli sheva so'zlardan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi; o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi; hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana olishi lozim.

11. O'qituvchining kiyinish madaniyati o'ziga xos bo'lishi, ya'ni sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishi talab etiladi.


12. O'qituvchi ta'lim muassasasida sinf jamoasining asosiy tashkilotchisi va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning eng faol ishtirokchisidir.

13. O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmashligi shart. Shuning uchun kasbiy faoliyatida pedagogik mahoratning bir qator sifatlarini uzluksiz tarkib toptirib borishi zarur.

14. O'qituvchi, eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mustaqil ravishda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqq olishi kerak.

O'qituvchilar unutmashliklari kerakki, o'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va lo'nda bayon etilishiga ahamiyat qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni

keltirishdan boshlamasligi, aksincha, o'quvchilarning (yoki hamkasbi, ota-onalar)



muvaffaqiyatlarini e'tirof etishlari, ularni yanada boyitishga ishonch bildirishi bilan muloqotni tashkil qilishi lozim. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do'stona munosabat,

yaxshi kayfiyat sezilib tursin.

O'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

